

MUNDARIJA:

Kirish	3
I bob. XVII-XVIII asrlarda Amerikada tanqidiy realizm oqimi va uning namoyondalari.....	5
1.1. Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning kirib kelishi va uning namoyondalari	5
1.2. Tanqidiy realizmning yorqin vakili Mark Tven va uning ijodi.....	20
II bob. Realizm davrida Mark Tven asarlarida ijtimoiy hayotning tasnifi	29
2.1. Mark Tvenning asarlarida yoritilgan ijtimoiy-maishiy hayotning talqini	29
2.2. “Tom Soyer sarguzashtlari”da ifodalangan satiraning tasviri va “Geklberri Finning sarguzashtlari”asarida Amerikaning ijtimoiy-maishiy hayoti	40
Xulosa	49
Foydalanilgan adabiyotlar	50

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng hayotimizning har jabhasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvalo, respublikamiz iqtisodiyotini isloh qilish jarayoni tezlashib ketdi, chunki iqtisodiyot har bir davlatning tamal toshi, asosi, poydevori sanaladi. Shuningdek, ta'lim sohasiga ham katta e'tibor qaratila boshlandi, istiqlol yillari davomida to'laligicha isloh qilindi. Muhtaram birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, bizning avlodlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lmog'i lozim. O'zbekiston dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi, respublikamiz mustaqillikning ilk yillaridan bir qator xorijiy davlatlar bilan teng ta'lim sohasida va iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda. Bu esa o'z navbatida xorijiy tilda erkin gaplasha olish ehtiyojini tug'diradi. XXI asrda inson o'zini zamonaviy texnologiyalarni bilish va ingliz tilini bilmasdan tasavvur qilishi o'ta mushkul, chunki ko'plab saytlar ingliz tilida, kompyuterlar hayotimizning har jabhasiga kirib kelgan. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'tmishli, zamonaviy erkin fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatining yanada integrallashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51.7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv –uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashdi.¹ Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda ta'lim sohasiga, jumladan ingliz tili kabi chet tillarini o'rganishga

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 32-son, 820-modda.

shu qadar imkoniyatlar yaratilgan ekan, biz yoshlar bulardan unumli foydalanib, vatanimiz kelajagi yo'lida bor kuch-idrokimizni safarbar etishimiz darkor.

Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda shuni ta'kidlash joizki tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti, san'ati, madaniyati va urf-odatlar bilan yaqindan tanishish ham bugungi kun talabi. Chunki bu ham o'z navbatida madaniyatlararo, tillararo kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Shu jumlagi mansub adabiyot ham xalqning orzu-umidlari, yashash tarzi, qiziqishlari, madaniyati haqida, tarixi haqida hikoya qiladi va bizni ogoh etadi. Ushbu ishimiz davomida biz xalqning mentalitetini, ijtimoiy hayotining ifodalanishini Mark Tven asarlari orqali o'rganamiz, tahlil qilamiz va kuzatamiz.

Mavzuning dolzarbligi: Barcha jahon mamalakatlari o'ziga xos globallashuv jarayonida yashamoqda. Bu bosqichda xalqaro aloqalar, mamlakatlar hayotining bir-biriga ta'siri, turli sohalardagi o'zaro munosabatlar, fikr va tajriba almashinuvlari, sintez va uyg'unlashuv har qachongidan ham yuqori bosqichga ko'tarildi. Binobarin, adabiyotshunoslikda ham milliy adabiyot asarlarini jahon so'z san'atining nodir namunalariga qiyosan baholash kuchaymoqda. Aslini olganda, biror davrda ham o'z qobig'iga o'ralgan adabiyot bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Shuningdek, muayyan yozuvchi ijodini jahon adabiyoti namunalariga qiyosan o'rganish masalasi, birinchidan, milliy adabiyotning, yozuvchi ijodinining dunyo adabiyoti kontekstidagi o'rnini belgilash, ikkinchidan, ijodiy individuallik masalasini hal qilish nuqtai-nazaridan hamisha dolzarbdir.

Ushbu ishda jahon adabiyoti nodir namoyondalaridan biri Mark Tven ijodi va uning asarlarida ijtimoiy hayot qay tarzda yoritilganligi, hayotni aks ettirishda satiradan qanday ustamonlik bilan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Amerikalik adib Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari”, “Geklberri Finning sarguzashtlari”, “Kalaveraslik mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa” asarlari tadqiqot obyekti sanaladi. Predmeti esa asarlardagi satiraning ifodalanish usullari.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: -Jahonshumul yozuvchi Mark Tven asarlarida ijtimoiy-siyosiy hayotni ifodalashda satiraning o’rni va uning ifodalanishi;

-Mark Tven satirik asarlarining o’ziga xos xususiyatlari kabi asosiy nuqtalar ushbu bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalari sanaladi.

Ishning o’rganilganlik darajasi: Mazkur ishda Mark Tven ijodi keng o’rganilgan yozuvchining asarlari haqida chuqur o’rganiladi. Julia Louis-Dreyfus Mark Tven haqidagi “The best comedian” maqolasida uni yumoristlar ichida eng yaxshisi deya tasvirlaydi, uning asarlariga o’z fikrini bildiradi. Shu bilan bir qatorda asrimizning buyuk adiblaridan biri Ernest Xeminguey Mark Tvenning “Geklberri Finning sarguzashtlari” asariga yuksak baho berib, shunday degan edi: “Butun hozirgi zamon Amerika adabiyoti birgina “Geklberri Finn” deb atalmish kitobdan iboratdir...”. Amerika yozuvchisi X.L.Menken Mark Tvenni: “Bizning milliy adabiyotimizning haqiqiy otasi”, deb atagan edi. Uning fikricha Mark Tvenga qadar hech kim Amerika adabiyotida xalq yumori bilan jiddiy adabiyotning uyg’unligiga bu qadar yuqori darajada erisha olmagan edi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Shu paytga qadar uning asarlari o’rganilgan tadqiq etilgan, asarlardagi ijtimoiy hayotning kulgi ostida, achchiq zaharxanda bilan aks ettirilishiga asosiy e’tibor berilgan. Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari”, “Geklberri Finning sarguzashtlari”, “Kalaveraslik mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa” asarlarida qo’llanilgan satirani chuqurroq tahlil qilish va o’rganish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Ushbu ishimiz mundarija, kirish, 2bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. XVII-XVIII asrlarda Amerikada tanqidiy realizm oqimi va uning namoyondalari

1.1. Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning kirib kelishi va uning namoyondalari

XIX asrning 2-yarmida Amerika Qo'shma shtatlari hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi butun Shimol hukmron sinfi quldorlar janubi ustidan ga'laba qozonib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatdi. Shundan so'ng AQSH jadal kapitalistik taraqqiyot yo'liga kirdi. Sanoatning muhim tarmoqlari ildam qadamlar bilan rivojlana boshlaydi. 70-80 yillarda monopoliya birlashmalari yuzaga kelib, ishchilarni qattiq ishlatish natijasida katta foyda oldilar. Kapitalizm yuqori va so'nggi bosqichi – imperializmga o'tgach, uning ziddiyatlari yana ham keskinlashib ketdi. 1886-yilning may oyida ishchilar uyushtirgan katta qozg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Amerika hukmron sinfining harbiy siyosati kuchayadi. U Ispaniya bilan urush olib boradi, Puerto-Riko, Filippinni o'ziga bo'ysundirib oladi. Qisqa muddatli o'sish va ko'tarilishdan so'ng, mamlakat xo'jaligida inqirozlar boshlanib, son-sanoqsiz ishchilar ishsiz qoladi. Bular Amerikaning o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor, u yerda hamma uchun teng imkoniyatlar mavjud degan qarashlar bir quruq xayoldan iborat ekanini ochib tashlaydi.²

Amerika adabiyotida ham o'zgarishlar yuz berdi. Fuqarolik urushidan so'nggina Amerika adabiyotiga o'sha davrdagi Tanqidiy realizm davri o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Mamlakat siyosatidagi keskin o'zgarishlar, insonga boshqacha nuqtai nazar bilan qarash qalam ahliga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bundan oldin ular o'z his-tuyg'ularini ideal qahramonlari orqali ko'rsatgan bo'lsalar, endi ular hayotni to'laligicha haqqoniy, real qilib aks ettira boshladilar. O'ta tanqidiy adabiyot mavzulari oldingi avlod yozuvchilari-Irving, Longfellov va Kuper asarlarida aks

² Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 1995

etganlardan keskin farq qilardi. Mark Tven bu haqda shunday deydi: “Oʻtgan 8 yil – 1860-1868 yillarda asrlar davomida saqlanib qolgan ijodiy anʼanalarni yoʻqotdi, insonlarning bir-biriga munosabatini tubdan oʻzgartirdi, butun mamlakatning qariyb yarim aholisining ijtimoiy ahvolini yaxshiladi, oʻlchab boʻlmaydigan darajada milliy xarakterga taʼsir koʻrsatdi.”³

Tanqidiy realizm oqimi kayfiyati amerikaliklar hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi. Koʻpgina oldin ham kuzatilgan adabiy mavzularga sevgi-muhabbat, sanʼat, sanʼatkorning hayotdagi roli -boshqa koʻz bilan qaray boshlandi. Romantik maktab namoyondalari sevgiga kundalik hayotdan chekinish, dunyoga boshqa koʻz bilan qaray boshlash deb tushunishsa, tanqidiy realizm tarafdorlari burjua jamiyatining nikohni ham shartnoma sifatida koʻrishining qanchalik uyatsiz va nobakor ish ekanligini namoyon etishga urinishdi. Realistlar burjua jamiyati sanʼatga ham tovar sifatida qarashi koʻrsatishga astoydil harakat qilishdi. Realistlar insonni kundalik konfliktlar orida namoyon etishdi, uning ortida esa insonning his-tuygʻulari va tabiatini oʻrganishga urinishdi. Adib tomonidan kitobxonga har bir qahramonning oʻtmishi, buguni va kelajagini tasavvur qila olish imkoniyati berilardi, chunki asar voqealari tarixiy ketma-ketlikda bir-biri bilan bogʻliq edi. Amerikalik realistlar sentimentalizmga qarshi bordilar va balkim shuning uchun ularning asarlari koʻpincha ozgina qoʻpol, sayqallanmagan koʻrinishi mumkin, lekin ular har doim haqqoniy hayotni koʻrsatadi.

Amerika tanqidiy realizmining yorqin namoyondalari sifatida Mark Tven, Frank Norris, Stefan Kreyn, Jek London, Teodor Drayzerni aytish mumkin. Amerika tanqidiy realizmi dunyo adabiyotini ijtimoiy notenglik, adolatsizlik, qoratanlilar va hindular masalalari, yosh avlodning taqdiri, ayollarning ozodlikka chiqishi mavzulari bilan boyitdi. Amerika hukmron tabaqalari realizmning adabiyotga tarqalishini oldini

³ Засурский Я.Н. Американская литература XX в. М., 1966.

olishga va kapitalistik jamiyatning asl mohiyatini yashirishga ko'p marotaba urinishdi. Ular realist yozuvchilarga qarshi uyushishdi: ularni matbuotda obdon tanqid qilishdi, nashriyotlarga ularning kitoblarini chop etishga ruxsat berishmadi, mustaqil ishlaydigan adiblarga ijod qilishga to'siqlar yaratishdi. Ko'pgina adiblar hatto AQSH ni tark etishga majbur bo'lishdi. Ammo amerikalik yozuvchilar shunday san'at asarlari yaratishdiki, bunday asarlar zamonaviy imperializmning reaksiya asoslarini ko'rsatib berdi va shu bilan birga bu kelajakda ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishga zamin yaratdi.

Bir paytning o'zida bu yosh yozuvchilarning ijodi yangi-yangi asarlar bilan boyiy boshladi. 1876-yilda Mark Tven o'zining "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarini yaratdi. Yosh qobiliyatli haykaltarosh haqidagi "Roderik Hadson" asari Henri Jeyms tomonidan yozib tugatildi va u o'zining yangi "Amerikaliklarga" asari ustida ishlay boshladi. Kitobxon yangi turdagi adabiyotga ehtiyoj seza boshladi. Realistlar insonlar hayotidagi muammolarni aniq va ravshan ko'rsatishga, o'sha davrdagi amerikaliklar hayotining qandayligini insonlarga tushuntirishga astoydil urinishdi. Stefan Kreyn "Meggi: ko'cha qizi" asarida qashshoq amerikalik ishchi oilasining taqdirini yosh qizning obrazi bilan namoyon etdi. Teodor Drayzer "Amerika fojiasi"da qashshoq yigitning kapitalizm ta'siri ostida pulga o'ch bo'lishi, boylikka intilishining mudhish qutulmoqlarini yaqqol tasvirlab berdi.

Demak, tanqidiy realism Amerika adabiyotida Fuqarolar urushidan so'ng o'z cho'qqisiga yetdi, bu oqim namoyondalarining asosiy e'tibori ijtimoiy notenglik, hindu va qoratanlilar muammolari, o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagi va ayollarga saylov huquqi berish mavzulariga qaratildi.

Tanqidiy realizmning asosiy xususiyati hayotdagi salbiy hodisalarni chuqur va haqqoniy tasvirlashdan iboratdir. U xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalariga asoslanadi; shu ilg'or g'oyalar pozitsiyasidan turib, turmush hodisalariga baho beradi, mehnatkash xalq manfaatlariga, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga, adolatli turmush uchun

olib borilgan kurashlarga va bu yoʻldagi intilishlarga toʻsqinlik qilgan turmush illatlarini keskin qoralaydi ularni tanqid ostiga oladi, fosh etadi.

Taniqli adabiyotshunos olim D.Qurbonov tanqidiy realizmni ijodiy yoʻnalish yoki metod deb ataydi va yuqorida keltirilgan fikrlardan biroz farq qiluvchi nuqtai nazarni bayon etadi:

Realistik elementlar barcha davrdagi ijod namunalarida mayjud. Realizm (lotincha realis - ashyoviy) - hayot haqiqatini asliga muvofiq tasvirlash, detallar va obrazlarning haqqoniyligini talab qiladi. Hayot haqiqatiga sodiqlik - uning asosiy shioridir. Realistlar obrazlar va hodisalarning hayotiyligiga alohida eʼtibor berganlar. Asar tili, qahramon nutqi, sujet, konflikt kabi unsuriyaming barchasi haqqoniylik talabiga boʻysundirilgan. Bu metod ijodkorning oʻzini qurshab turgan voqelik va insonlar toʻgʻrisida oʻylagan haq gapini aytish, kitobxon koʻz oʻngida real hayot va real insonlarni gavdalantirish yoʻli bilan voqelik va inson toʻgʻrisidagi haqiqatni koʻrsatish imkonini beradi. Realistik adabiyot buyuk namoyandalarining haqiqat kurashchilari sifatidagi xizmatlari beqiyosdir.⁴

Fanda realizmning ilk bor qachon paydo boʻlganligi toʻgʻrisida , aniq fikrga kelinmagan. Koʻplab tadqiqotchilar realizm ildizlarini juda s qadim zamonlardan izlaydilar. Ibtidoiy insonning qoyalarga chizgan rasmlari va antik adabiyot namunalarida ham realistlik unsurlarni kuzatadilar. Biroq realizmning badiiy tizim sifatida shakllanishi Uygʻonish davri bilan bogʻlanadi. Aynan shu davrga kelib insonga, uning qalbiga, kechinmalariga eʼtibor kuchayadi, tabiiy tuygʻulari boʻrttirib tasvirlanadi, kechinmalarga shoirona ruh beriladi. Shekspir, Servantes asarlarida realizmning oʻziga xos tarzda namoyon boʻlganligini koʻrish mumkin.

Realizm taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich maʼrifatchilik davrjga toʻgʻri keladi. XVIII asrda ingliz realistlik romani vujudga keladi (D.Defo «Robinzon Kruzo» romani

⁴ Каюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. Т., 1979.

bilan ushbu janrga asos soladi). Inson aqliga, uning imkoniyatlariga yuqori baho beruvchi ma'rifat-chilik realizmi hayot hodisalari va insonlar xatti-harakatlarini aqlga muvofiq yoki muvofiq emasligidan kelib chiqib baholar edilar. Aqlga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat deganda barcha qoloq urf-odatlar, eskirgan tartibotlar tushunilar edi. Shu sababli ma'rifatchilarning ijobiy qahramonlari o'tkir aqli bilan ajralib turadilar, salbiylari esa qoloq, johil odamlar. Ma'rifatchilik realizmi shartlilikka yo'l qo'yadi, fantastik elementlardan foydalanadi. (Masalan, Defo, Svift qahramonlari yoki Gyotening «Faust» asanni misol qilib keltirish mumkin;.

XVIII asr adabiyotida realizm va romantizm o'rtasida keskin chegara o'rnatish qiyin. Masalan, fransuz adibi Prosper Me rime asarlarida qahramonlar, sujet romantik asarlarga xos bo'lsa-da, faktik aniqlik uslubdagi xolislik uni realizmga yaqinlashtiradi. Ingliz adabiyotida Charlz Dikkens asarlarida maishiy-ijtimoiy roman an'analari davom ettiriladi, hayotiy manzaralar, hayotiy odamlar obraziga murojaat etiladi, ayni paytda avantyuristik o'rinlar, jinoyat, sirlilik kabi unsurlarning qo'llanishi romantik metodda yaratilgan asarlarni yodga soladi.

Tanqidiy realizm XIX asrning o'rtalarida maydonga kelgan adabiy yo'nalish, ijodiy metod. Termin ilk bor M.Gorkiy tomonidan qo'llanilgan va sho'ro davri adabiyotshunosligida faol iste'molda bo'lgan. Darhaqiqat, XIX asr o'rtalarida adabiy jarayonda maqomini egallay boshlagan realistik adabiyotning ko'plab namunalarida mavjud tuzum teran badiiy tahlil etilib, uning insoniylikka zid mohiyati ochib beriladi (masalan, O.Balzak,

F.Dostoevskiy, L.Tolstoy va boshqalar). Ya'ni realist san'atkorlar o'z idellaridan kelib chiqib, ko'pincha voqelikka tanqidiy munosabatda bo'ladilar va uni g'oyaviy-hissiy inkor qiladilar. Holbuki, birinchidan davr adabiyotida voqelikni inkor emas, tasdiq etuvchi asarlar ham bo'lgan, demak, ushbu atama davr adabiyotidagi hodisani to'liq qamray olmaydi; ikkinchidan, konkret badiiy asardagi g'oyaviy-hissiy inkor kunning dolzarb ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari bilangina bog'liq mazmun qatlami, holos,

unda boqiy umuminsoniy qadriyatlar va mangu muammolar talqinidan kelib chiquvchi umumbashariy mazmun qatlami ham bor, demak, butun boshli adabiy-badiiy hodisa mohiyatini inkor ruhi bilangina belgilash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Hozirgi adabiyotshunoslikda Tanqidiy relizm termini ananaviy ravishda qo'llanilib turgan bo'lsada, uning faolligi sezilarli darajada pasaygan.

XIX asr yozuvchilari ijodida realizmning hayotga va xalqqa yaqinligi yana ham oshdi, uning vositalari yana ham mukammallashdi.

Realizmda ijodkorning shaxsi va uning ijtimoiy estetik ideali ham katta rol o'ynaydi. Realizm insoniyatning ezgu orzulari jahondagi hamma kishilarning haqiqiy insonlarcha yashashga erishuvi uchun kurashni shior qilib oldi. Shuning uchun ham buyuk realist yozuvchilar ijodi izchil xalqchillik ruhi bilan sug'orilgandir. Realizmning yirik vakillari G.Geyne, V.Gyugo, G.Mopassan, J.London, B.Shou, L.Tolstoy kabi yozuvchilarning ijodi buning yaqqol misoli bo'la oladi.⁵

Badiiy adabiyot taraqqiyotining hamma bosqichlarida san'atkorlar ijodida muhim o'rin tutgan tanqidiy element endi realizmda yangi kuch kasb etadi. Mavjud burjuaziya tuzumi realistlar ijodida qoralanadi va rad etiladi, shuning uchun ham realizmning bu yuqori bosqichi tanqidiy realizm deb ataladi. Yetuk realizmning asosiy xususiyatlari tanqidiy realizm metodida rivojlanib, yuqori darajaga ko'tariladi. Birinchi navbatda adabiyot va san'atning xalq hayoti bilan aloqasi juda mustahkamlanib adabiyot va san'at, M.Gorkiy ta'biri bilan aytganda "xalqning ko'zi, qulog'i va vijdoni, davrning aks-sadosi" bo'lib qoladi.

Tanqidiy realizmning xarakterli xususiyati unda istorizm (tarixiylik) prinsipining izchil tantanasidir. Yevropa romantizmi ichida kurtak ochib, realizmda keng ravnaq topgan istorizm prinsipi san'atkordan har bir davrni va psixologik hodisani izchil

⁵ Fones Philip S. "Mark Twain: social critic" New York, 1958.

ravishda butun tarixiy konkretligi bilan tasvirlashni talab etadi. Bu talab ayniqsa tarixiy o'tmishga bag'ishlangan asarlarga taalluqlidir. Istorizm prinsipiga amal qilgan yozuvchi asarida hayot va odamlar o'zlari yashagan sharoitning natijasi o'laroq hamma o'ziga xos xususiyatlari bilan tasvir etiladi. Buning natijasida tanqidiy realizm asarlarida hatto tarixan o'zaro yaqin bo'lgan hodisalar ham o'zlarining tarixan konkretligini saqlagan holda bir birlariga o'xshamaydilar.

Tanqidiy realizm metodida hatto ikki muhit yoki tarixiy sharoitga mansub kishilarni bir muallif tasvirlaganda ham qahramonlar bir birlariga sira o'xshamaydilar. I.Turgenevning "Otalar va bolalar" hamda "Arafa" asarlarida yosh avlod vakillarining tasvirini esga olaylik.

Tanqidiy realizm metodidagi bu fazilatning sababi va bu metodning xususiyatlaridan biri unda ijtimoiy va psixologik determinizmning tantana qilishidir. Determinizm termini shartlanganlik demakdir. Ijtimoiy determinizm kishida bo'lgan xususiyatlar bu kishi tug'ilgan va o'sgan ijtimoiy sharoitning natijasi mevasi ekanini tasdiq etadi. Tanqidiy realizm adabiyoti kishi psixologiyasidagi hamma yaxshi va yomon xususiyatlarning asosiy sababi ijtimoiy sharoit ekanini ochib beradi va o'quvchini "odamlarni baxtiyor etish uchun ular yashagan muhitni o'zgartirish kerak", degan fikrga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, tanqidiy realizm adabiyoti va san'ati o'z zamonasidagi hukmron burjua jamiyatning inson, uning normal taraqqiyoti uchun yaramasligini fosh etadi va jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyasini stixiyali yoki ongli ravishda olg'a suradi, shu bilan jamiyatning fikriy taraqqiyotida juda katta ijobiy rol o'ynaydi. Psixologik determinizm kishi ruhiyatining nisbatan mustaqil hodisa ekanini, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonunlari borligini kashf etadi. Uning vakillari kishilar tasvirida ana shu qoidaga qattiq rioya qildilar. Tanqidiy realist odam tasvirida kishilarda "ruh dialektikasi" butun murakkabligini ko'zda tutadi, personajlarni, ularni psixologiyasidan kelib chiqmaydigan ishlar qilishga majbur etmaydi, ijtimoiy determinizm va psixologik determinizm prinsiplarining izchil

amalga oshirilishi natijasida tanqidiy realizm asarlari avval ko‘rilmagan darajada hayotiy haqqoniylik kasb etadilar. Bu ularning juda zo‘r badiiy ta’sir kuchini ta’minlaydi.

Tanqidiy realizm asarlari ta’sirchanligiga sabab unda ijobiy estetik idealning mavjudligidir. Rad etish pafosi tanqidiy realizm uchun juda xarakterli bo‘lsa ham ya’ni tanqidiy realizm o‘z zamonasining hukmron ijtimoiy-siyosiy tartiblarini, siyosiy va axloqiy aqidalarini uloqtirib tashlash kerakligini isbot etish ruhi bilan yo‘g‘rilgan ham bu metodda yozilgan asarlar ijobiy idealdan mahrum emas. Tanqidiy realizm o‘z zamonasi voqeligini porloq kelajak tufayli shu kelajakning muqarrarligiga ishongan holda va uni yaqinlashtirish niyatida o‘z zamonasining yaramas voqeligini rad etadi.⁶

Tanqidiy realizm adabiyoti va san’atining yana bir xususiyati unda janrlarning katta rivoji va tasvir vositalarining boyligidir. Ayniqsa epik va dramatik janrlar ijtimoiy roman, psixologik roman, tarixiy roman va qissa, psixologik drama, maishiy drama va hokazolar. Tanqidiy realizmda keng rivoj topadi. Roman epopeya darajasiga ko‘tariladi. Tanqidiy realizm turli mamlakatlarda va turli konkret tarixiy sharoitlarda yana ko‘p o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

XIX asrda bu usulning gurkirab rivojlanishi, ijtimoiy ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi va kishilar tomonidan hayotiy shart sharoitlar insonning insondek yashashi uchun nomuvofiqligi chuqurroq anglanishi bilan bog‘liqdir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek turli mamlakatlarda tanqidiy realizm taraqqiyoti va xususiyatlari aynan bir xil bo‘lmagan. Muayyan xalq hayoti shart-sharoitlarining o‘ziga xosligi uning adabiyotining o‘ziga xosligini ham belgilar edi. G‘arb tanqidiy realizmning eng yaxshi asarlarida ommaning qashshoqligi, oddiy kishilar insoniy qadr qiymatining oyoq osti qilinishi, jinoyat va ahloqsizlikning ortishi, kishilarning

⁶ Боброва М.Н. 'Литературная история' США. Т.1-2. М., Прогресс 1990.

ma'naviy tubanlashuvi va bir biridan uzoqlashuvi singari kapitalistik turmushga xos daxshatli illatlar nihoyatda haqqoniy hamda ta'sirchan holda aks ettirildi. Voqelik tasviridagi haqqoniylik va ta'sirchanlik realizm taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar sodir biladi. 1861-1865 yillardagi grajdanlar urushi natijasida Shimol burjuaziyasi quldorlar Janubi ustidan g'alaba qilib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatdi. AQSH jadal Kapitalistik taraqqiyot yo'liga o'tadi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda ma'lum qo'lganlardan biri romannavis va tanqidchi Uilpyam Din Xouellsdir (1837-1920). U adabiyotda sun'iylik va hartlilikka qarshi chiqib, "nozik realist"larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlashiga javoban kundalik hayotda uchraydigan oddiy shodisalarni real ko'rsatishga chaqirdi.

Mark Tven (1835-1910). Adabiy taxallusi Mark Tven bilgan Semyuelp Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, o'z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir. Semyuelp Klemens Missuro'ya shtatida joylashgan Florida deb ataluvchi kichik asholi punktida tug'ilgan Mark Tvenning ilk ijodi "Qalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa", "Tennesiyada jurnalistika", "Men qishloq xo'jaligi gazetasini qanday tashrir etdim" yumoristik hikoyalarida qiziq voqea, latifa va uydirma voqealar tasvirlanadi, ularda burjua matbuotidagi beburdlik masxara qilinadi.

Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bilgan (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan yillar - Jek London ijodining yuqori cho'qqisi hisoblanadi (1876) roman qahramoni Tom kichik shahardagi meshchanlar ichida yashaydi. Xolasining betixtov naso'shatlari, maktabda quruq yod oldirishdan iborat eskicha iqtish usullari zerikarli bilganidan u darsga qiziqmaydi,

mashg'ulot vaqtida boshqa narsalarni o'ynab itiradi. Uning shixligi va iynqaroqligi o'sha voqelikka o'ziga xos norozilikdir. Tomning uysiz bola Gek Finnga havas bilan qarashi - meshchan urf-odatlaridan xoli erkinlikka intilish alomatidir.

"Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik, adolat tashabbuskorlik rushida tarbiyalashga yordam beradi. Asarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda realo'zm (kichik shaharda istiqomat qiluvchi meshchanlar hayoti tasviri) bilan romantizm (Tom va do'stlarining xayoliy romantik dunyosi)ning mavjud bilishidadir.

Mark Tven tarixiy temadagi romanlaridan biri "Shashzoda va gado" (1882)da garchi O'rta asr feodal davri voqealarini aks ettirsa ham, lekin o'z zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq itmishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda biladi. asardagi voqea XVI asrning Birinchi yarmida Angliyada ro'y beradi. Bir vaqtda bir-biriga ixshagan ikki bola dunyoga keladi. Ulardan biri saroyda, ikkinchisi qashshoq xonadonda tug'iladi. Bular shashzoda Eduard bilan gadoy Tom Kentilardir. Agar Eduard Tyudor saroyda Shoh farzandi sifatida izzat-shurmat va farog'atda yashasa, Tom kambag'al oilada qashshoqlikning butun azob-uqubatlarini boshidan kechiradi. "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1885) romani bilan Mark Tven ijodida yangi davr boshlanadi. Bu ham bolalar haqidagi Birinchi asarining davomidek tuyulsa-da, lekin undan farq qiladigan tomonlari bor. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas, balki kichada yuruvchi yetim Gek Finndir. U faqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bilmay, balki ham aqlan, ham jismonan kamol topib borayotgan o'smir sifatida harakat qiladi. "Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik Yanki" tarixiy-fantastik romanining qahramoni oddiy amerikalik Yankidir. U bir mushtlashish vaqtida boshiga tushgan kaltak zarbidan so'ng aqlini yo'qotadi, shushiga kelgach, o'zini VI asrdagi Angliyada ko'radi va qirol artur saroyiga boradi. Asarning fantastik pardasi ostida real voqealar aks etadi. Artur qirolligi zulm-dahshat,

diniy jaholat avj olgan feodalizm hukmronlik qoʻlgan davr edi. Yozuvchi oʻz zamonasidagi qabohatlarning oʻtmishdagi yaramasliklar bilan bogʻliqligini koʻradi.

Mark Tven keyinchalik fransuz xalqining milliy qahramoni Janna d'Ark shaxsiyatiga qiziqadi va "Janna d'Ark" (1896) tarixiy romanini yaratadi. Janna d'Ark Ingliz bosqinchilariga qarshi yuz yillik urush vaqtida oʻz jasorati bilan xalqni jangga rushlantirib turgan Fransiyaning milliy qahramoni sifatida maʼlum. Bu asarida yozuvchining monarx, diniy reaksiyaga qarshi nafrati koʻzga tashlanib turadi. Roman Jannaning quroldoshining bu mard qiz haqidagi eshlari asosida yozilgan. Ijodining shu davriga xos "Gedlibergni buzgan odam" (1899) qissasida boylik, hasadgöylikka berilgan hozirgi zamon Amerika burjua jamiyati illatlarini fosh etadi. Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan xoli joy, deb atalar edi. Lekin yaqindan qaraganda, u oʻsha tuzumning barcha qabohatlarini oʻzida mujassamlantirgan shahar. Uning aksar fuqarolarida vijdon va poklikdan asar koʻrinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yoʻq. Bu shaharning ustunlari hisoblangan boy grajdanlari aslida eng insofsoʻz, tovlamachi, pul uchun oʻz shaonidan ham voz kechuvchi shaxslar bilib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi.⁷

Tanqidiy realizm - 19-asrning 20—30y.larida jahon adabiyoti va sanʼatida shakllangan badiiy metod, realizmning bir koʻrinishi. Klassitsizm adabiyoti vakillarining oʻz davrini oʻtagan va eskirgan tasvir usullariga qarshi, oʻtgan asrlardagi ilgʻor adabiyotlarning eng yaxshi anʼanalarini davom ettirish va yangilash maqsadida maydonga kelgan. Hayot hodisalarini badiiy mujassamlashtirishda bu hodisalarning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini ochish Tanqidiy realizmning asosiy maqsadidir. Tanqidiy realizm yozuvchidan insonni har tomondan cheklovchi, ezuvchi, buzuvchi va maʼnaviy inqirozga olib keluvchi hayotning ijtimoiy asoslarini tanqidiy aks ettirishni

⁷ Mark Twain: "Yanki and King Artur" London. 1976.

talab etadi. Tanqidiy realizm adabiyoti va san'atida tarixiylik prinsipi hayotiy voqealar, kishilarning xarakterlari va ularni qurshagan sharoitning muayyan davr uchun muhim voqealar, xarakterlar va sharoitlar sifatida tasvir etilishida zuxur beradi. Tanqidiy realizm asarlaridagi personajlar "ortiqcha kishilar", "otalar" va "bolalar" yoki yangilik va eskilik tarafdorlari bo'ladimi — ular o'z davrining mahsulidir. Ammo tarix harakati, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni Tanqidiy realizmning aksar asarlarida kishilar sub'yektiv faoliyatining natijasi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun ham bu asarlarda faqat kishilarning ruhiy olami, ishonch va e'tiqodi ulardagi ijobiy (ezgu) ibtidoning manbai bo'lib xizmat qiladi. Tanqidiy realizm insoniyatni baxtli va nurli hayotga olib boruvchi yo'lni ko'rsatmaydi, balki kishilarning shunday xayot sari intilishlarida ularga duch kelgan to'siqlar, illatlar, sharoitni ko'rsatadi. Shuning uchun ham badiiy tasvirning bu usuli Tanqidiy realizm deb ataladi.

Tanqidiy realizmning 20-asrda yaratgan asarlarida 2 tamoyil ko'zga tashlanadi. Birinchisi — kishilarning kundalik hayotini, ularning baxtli hayot yo'lidagi intilishlarini tasvirlash. Remark, Steynbek singari yozuvchilarning shu yo'nalishdagi asarlaridan, Fellini, Antonioni singari mashhur italyan kinorejissyorlarining filmlaridan chiqadigan xulosa shuki, inson hayotini yaxshilash, taqdirni o'zgartirish mumkin emas. Ikkinchisi — xalq ozodlik harakatlari, shu jumladan, 20-asrdagi inqilobiy harakatlarni badiiy idrok etish va shu hol tufayli ijtimoiy taraqqiyot istiqboliga umid bilan qarash. Rollan, London, Drayzer singari yozuvchilarning ayrim asarlarida ana shu ikkinchi tamoyil ustuvorlik qiladi va xuddi shu tamoyil ular ijodini sotsialistik realizm bilan yaqinlashtiradi.

L.N. Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy, A.P.Chexov kabi yozuvchilarning 1917 y. gacha bo'lgan rus vokeligi tasvirlangan asarlarinigina Tanqidiy realizmning namunalari sifatida baholab, 1917 yildan keyingi davr voqealariga bag'ishlangan rus yozuvchilarining asarlarini esa sotsialistik realizm metodiga nisbat berib keldi. Holbuki, xuddi shu davr rus adabiyotida Tanqidiy realizm yetakchi metod sifatida

rivojlandi va hattoki sovet davri rus adabiyotida Tanqidiy realizm metodi tamoyillari asosida ko'pgina asarlar yaratildi. M.Bulgakovning "Tarki dunyo" ("Beg"), M.Sholoxovning "Tinch okar Don", A.Pasternakning "Doktor Jivago", A.Soljenitsinning "Gulag arxipelagi" singari asarlari tanqidiy realizm metodiga asoslanganligi bilan farqlanib turadi.

Realistik elementlar barcha davrdagi ijod namunalarida mavjud. Realizm (lotincha realis - ashyoviy) - hayot haqiqatini asliga muvofiq tasvirlash, detallar va obrazlarning haqqoniyligini talab qiladi. Hayot haqiqatiga sodiqlik - uning asosiy shioridir. Realistik obrazlar va hodisalarning hayotiylikiga alohida e'tibor berganlar. Asar tili, qahramon nutqi, sujet, konflikt kabi unsuriy barchasi haqqoniylik talabiga bo'ysundirilgan. Bu metod ijodkorning o'zini qurshab turgan voqelik va insonlar to'g'risida o'ylagan haq gapini aytish, kitobxon ko'z o'ngida real hayot va real insonlarni gavdalantirish yo'li bilan voqelik va inson to'g'risidagi haqiqatni ko'rsatish imkonini beradi. Realistik adabiyot buyuk namoyandalarning haqiqat kurashchilari sifatidagi xizmatlari beqiyosdir.⁸

Fanda realizmning ilk bor qachon paydo bo'lganligi to'g'risida, aniq fikrga kelinmagan. Ko'plab tadqiqotchilar realizm ildizlarini juda s qadim zamonlardan izlaydilar. Ibtidoiy insonning qoyalarga chizgan rasmlari va antik adabiyot namunalarida ham realistlik unsurlarni kuzatadilar. Biroq realizmning badiiy tizim sifatida shakllanishi Uyg'onish davri bilan bog'lanadi. Aynan shu davrga kelib insonga, uning qalbiga, kechinmalariga e'tibor kuchayadi, tabiiy tuyg'ulari bo'rttirib tasvirlanadi, kechinmalarga shoirona ruh beriladi. Shekspir, Servantes asarlarida realizmning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Realizm taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich ma'rifatchilik davriga to'g'ri keladi. XVIII asrda ingliz realistlik romani vujudga keladi (D.Defo «Robinzon Kruzo» romani bilan ushbu

⁸ Султон И. Адабиёт назарияси. Т., 1980.

janrga asos soladi). Inson aqliga, uning imkoniyatlariga yuqori baho beruvchi ma'rifat-chilik realizmi hayot hodisalari va insonlar xatti-harakatlarini aqlga muvofiq yoki muvofiq emasligidan kelib chiqib baholar edilar. Aqlga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat deganda barcha qoloq urf-odatlar, eskirgan tartibotlar tushunilar edi. Shu sababli ma'rifatchilarning ijobiy qahramonlari o'tkir aqli bilan ajralib turadilar, salbiylari esa qoloq, johil odamlar. Ma'rifatchilik realizmi shartlilikka yo'l qo'yadi, fantastik elementlardan foydalanadi. (Masalan, Defo, Svift qahramonlari yoki Gyotening «Faust» asanni misol qilib keltirish mumkin;.

Realizm — voqelikni, mavjud borliqni badiiy adabiyot va san'at (tasviriy san'at, teatr, musiqa va boshqalar)ning ifoda vositalari orqali o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish. Adabiyotda realizm — hayotni voqelikdagi voqea va hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali aks ettirish metodi. Realizm adabiyotning o'zini va tashqi olamni bilish vositasi sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkoniyatini beradi. Realizm metodiga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Binobarin, realizm adabiyoti jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqich hisoblanadi.

Realizm keng ma'noda Gomer va Dante, Shekspir va Rasin, Firdavsiy va Navoiy ijodiga ham xos xususiyat, zero, hayotiylik va samimiylik bu mumtoz ijodkorlarning asarlarida katta mahorat bilan ifoda etilgan. Ammo realizm adabiy metod yoki adabiy yo'nalish sifatida yozuvchidan voqelikni hayotiy va haqqoniy aks ettirish tamoyiliga izchil rioya etishni, inson va tashqi olamni ongli ravishda o'rganish va bilishni taqozo etadi. Shu ma'noda jahon adabiyoti 19-asrga kelibgina o'z taraqqiyotining R. metodiga asoslangan yangi bosqichiga erishdi.

Realizmning metod sifatida paydo bo'lish vaqti masalasida adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari

qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgani va bu usullarning turli bosqichlarni bosib oʻtganini nazarda tutib, antik realizm, Uygʻonish davri realizmi, maʼrifatparvarlik realizm va sotsialistik realizm tushunchalarining mavjudligi haqidagi qarashlarni olgʻa surib keladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga koʻra, realizm ijodiy metod sifatida 18-asrda oilaviy-maishiy va ijtimoiy-maishiy romanlar yaratilishi bilan bir vaqtda maydonga kelgan. R.ning 19-asr 30-yillarida Yevropa adabiyotida shakllana boshlaganligi haqidagi fikr aksar adabiyotshunoslar tomonidan qabul qilingan boʻlib, bu fikr Yevropa xalqlari adabiyotlarida voqelikni haqqoniy tasvirlash tamoyili yuksak ijtimoiytahliliy shakllarda keng va teran ifodalanganligi bilan tasdiqlanadi.⁹

⁹ Шукуров Н. Адабиётшуносликка кириш. Т., 1984.

1.2 Tanqidiy realizm davrining yorqin vakili Mark Tven va uning ijodi

Asl ism-sharifi Samuel Lengxorn Klemens bo'lgan amerikalik yozuvchi, jahon adabiyotining yirik namoyandasi. O'spirinlik va yigitlik yillarida darbadarlikda kun kechirgan, turli kasblar bilan shug'ullanib, tirikchilik o'tkazgan, keyinchalik gazeta tahririyatlarida ishlagan.

Tvenning butun taqdiri Amerika chegarasi bilan chambarchas bog'lanib ketgan bir oiladan kelib chiqqan edi. Yozuvchining bolalik yillari Missisipida, butun jahon kitobxonlariga Sankt Peterburg nomi bilan tanish bo'lgan Gannibal shaharchasida o'tdi. U vaqtlarda Gannibal sivilizasiyasining eng so'nggi nuqtasi edi, undan keyin deyarli o'zlashtirilmagan yerlar cho'zilib ketardi. Missisipining narigi qirg'og'idan esa qulchilikdan ozod bo'lgan yerlar boshlanardi. Go'yo tarix ataylab uyushtirgandek bu qoloq joyda o'tgan asr Amerika hayotidagi asosiy ziddiyatlar shu qadar yaqqol sodir bo'lib o'tgan edi. Gannibal ustidan g'arbga ko'chuvchilarning yo'li o'tardi, daryo bo'ylab uning pastidagi paxta plantatsiyalarida ishlatish uchun olib o'tiladigan qullarning yo'li ham, qochoq qullarning yo'li ham ayni shu yerda kesishardi. Ularni ko'pincha daryodan olib o'tiladigan joyda ozodlikdan ikki qadam berida tutib olishardi.

Butun umri chegaralarda omad izlab o'tgan, biroq bunga erishish uchun vijdoni o'ta soflik qilgan sudya Klemens Mark Tven hali 12 ga to'lmasdanoq hayotdan ko'z yumgan edi. Tom Soyer haqida qissada madh etilgan beg'ubor, beg'am bolalik tugab, mashaqqatli yillar boshlandi. Tven tipografiyada shogird, so'ngra harf teruvchi, keyinroq akasi Orion Gannibalda nashr etadigan gazetaning xodimi bo'lib ishladi. 1857 yilda u mashhur lotsman Biksbi bilan tanishdi va unga shogird tushdi, bir yil o'tib esa daryodan ilk bor kemani o'zi olib o'tdi. U to fuqarolar urushigacha lotsmanlik xizmatida bo'ldi. Keyinchalik Mark Tven "Missisipidagi hayot" asarida o'z bolaligi haqida shunday yozadi:

“When I was a boy, there was but one permanent ambition among my comrades in my village on the west bank of the Mississippi River, That was, to be a steam boatman. We had transient ambitions of other sorts, but they were only transient. When a circus came and went, it left us all burning to become clowns, the first Negro. Minstrel show that came to our section left us all suffering to try that kind of life, now and then we had a hope that if we lived and were good, esod would permit us to be pirates. These ambitions faded out, each in its turn, but the ambition to be a steamboatman always remained” .¹⁰

Yozuvchining Mark Tven taxallusini olishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi. Ikki dengiz o‘lchovi-yo‘l yaxshi degan ma‘noni bildirar edi. Shimol bilan janub o‘rtasidagi grajdanlar urushi (1861-1865) natijasida Missisipi daryosida kema qatnovi to‘xtab qolgandan so‘ng Mark Tven uzoq g‘arbga Nevadaga borib, oltin izlovchilar orasida yuradi. Lekin uning bu intilishlari natija bermagach, endi jurnalistika bilan shug‘ullanadi. U bosmaxonada ishlagan kezlaridayoq maqola, ocherk, pamflet, feletonlar yozgan edi. Bu sohada ma‘lum tajribaga ega bo‘lishi tufayli u 60 yillar o‘rtasida yumoristik hikoyalar ustasi sifatida taniladi.

Folklor syujeti asosida yozilgan «Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa» asari (1865)da soddadil amerikaliklarning hazil-mutoyibasi va hayoti tasvirlangan. 1867 yilda Yevropa va Falastin bo‘ylab sayohat qilgan. «Chet ellardagi soddadil kishilar» (1869) yumoristik ocherklar, «Toblanganlar» (1872) ocherklar kitoblariga kirgan asarlar ana shu sayohatlar taassurotlari asosida maydonga kelgan.

«Zarhal asr» (1873, Ch. Uorner bilan hamkorlikda) romani moliyaviy-siyosiy korrupsiya haqida, «Yaltiroq asr» (1874) satirik romanida esa jamiyat illatlari hajv etiladi. Yumoristik va satirik yo‘sinda yozilgan «Eski va yangi hikoyalar» (1875),

¹⁰ ПОММ А.С. Марк Твен. Л., 1977. 78-бет

«Tennesidagi jurnalistika» (1869), «Meni gubernatorlikka qanday saylashgani» (1870), «Qishloq xo‘jaligi gazetasiga qanday muharrirlik qildim» (1870) singari to‘plamlariga kirgan asarlarida Amerika xayotining turli qirralari tasvirlangan.

«Geklberri Finning boshidan kechirganlari» (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonmayon mavjudligi ko‘zga tashlansa, «Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar» (1889) qissasida ijtimoiy qarama-qarshilik dunyosi qoralanadi. «Missisipidagi eski davrlar» (1875), «Missisipidagi hayot» (1883) kitoblari, «Shahzoda va gado» (1882), «Ovsar Vilson» (1894), «Tom Soyer chet elda» (1894), «Tom Soyer — josus» (1897), «Sirli notanish odam» (1916) kabi roman va qissalar muallifi.

Yozuvchining 1895 yildagi jahon bo‘ylab sayohati «Ekvator bo‘ylab» (1897) kitobida, shuningdek, pamfletlar turkumi, shu jumladan «Qorong‘ida o‘tirgan odamga» (1901), «Harbiy ibodat» (1923 yilda nashr etilgan) asarlarida aks etgan.¹¹

Bolalarga atab yozilgan asarlari bolalar adabiyotining mumtoz namunalari sanaladi («Tom Soyerning boshidan kechirganlari», 1876 va b.). «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» asari (A. Pirnazarov tarjimasi) o‘zbek tilida bir necha bor nashr etilgan. Shuningdek, «Geklberri Finning boshidan kechirganlari», «Hikoya va pamfletlar» (1959), «Shahzoda va gado» (1962) va boshqaasarlari xam o‘zbek tiliga tarjima qilingan, maktab darsliklariga kiritilgan.

Mark Tven (1835-1910) Adabiy taxallusi Mark Tven bilgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, o‘z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir. Semyuel Klemens Missuriya shtatida joylashgan Florida deb ataluvchi kichik aholi punktida tug‘ilgan

¹¹ Curry Dean. "Highlights of American Literature". Washington, D.C. 1988.

Mark Tvenning ilk ijodi "Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa", "Tennesiyada jurnalistika", "Men qishloq xo'jaligi gazetasini qanday tashir etdim" yumoristik hikoyalarida qiziq voqea, latifa va uydirma voqealar tasvirlanadi, ularda burjua matbuotidagi beburdlik masxara qilinadi. Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bilgan (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan yillar - Jek London ijodining yuqori cho'qqisi hisoblanadi (1876) roman qahramoni Tom kichik shahardagi meshchanlar ichida yashaydi. Xolasining betixtov naso'shatlari, maktabda quruq yod oldirishdan iborat eskicha iqtish usullari zerikarli bilganidan u darsga qiziqmaydi, mashg'ulot vaqtida boshqa narsalarni o'ynab itiradi. Uning shixligi va iyinqaroqligi o'sha voqelikka o'ziga xos norozilikdir. Tomning uyso'z bola Gekl Finnga havas bilan qarashi - meshchan urf-odatlaridan xoli erkinlikka intilish alomatidir.

"Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik, adolat tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Asarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda realizm (kichik shaharda istiqomat qiluvchi meshchanlar hayoti tasviri) bilan romantizm (Tom va do'stlarining xayoliy romantik dunyosi)ning mavjud bilishidadir.

XX asr Amerika adabiyotida tanqidiy realizm tamoyillarining aks ettirilishi (Mark Tven ijodi misolida) ma'lum. Bu asarda yozuvchining monarx, diniy reaksiyaga qarshi nafrati ko'zga tashlanib turadi. Roman Jannaning quroldoshining bu mard qiz haqidagi eshlari asosida yozilgan.

XIX-XX asr chegarasi imperializm davriga o'tgan Amerika burjuaziyasi mustamlakalar qo'lga kiritish uchun bosqinchilik urushlari olib borar edi. U mahalliy xalqlarning qarshiligini yovuzlarcha bostirib, Filippin orollari, Kuba, Puerto-Rikoni shu davrda o'ziga bo'ysundiradi. Mark Tven shunday bir sharoitda yozgan falsafiy kitobi "Inson o'zi nima?" (1906) va "Sirli notanish kishi" (1898) qissasi bilan burjua demokratiyasining soxtaliklarini, Amerika imperializmining qaboxatlarini yana ham

qattiq fosh etgan yirik satirik yozuvchi sifatida maydonga chiqadi. Ijodining shu davriga xos “Gedlibergni buzgan odam” (1899) qissasida boylik, xasadgo‘ylikka berilgan hozirgi zamon Amerika burjua jamiyati illatlarini fosh etadi.

Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan holi joy, deb atalar edi. Pekin yaqindan qaraganda u o‘sha tuzumning barcha qabohatlarni o‘zida mujassamlantirgan shahar. Uning aksar fukarolarida vijdon va poklikdan asar ko‘rinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yo‘q. Bu shaharni ustunlari hisoblangan boy fuqarolari aslida eng insofsiz, tovlamachi, pul uchun o‘z sha’nidan ham voz kechuvchi shaxslar bo‘lib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi. yozuvchi shaharning eng vijdonli kishilaridan hisoblangan va to‘xmat qilib ayblangan Berjesni yoqlab, pulga sajda qilgan ruxoniy Bilson va amaldor Vilsonni qoralaydi.¹²

Mark Tven “Zulmkorlar Qo‘shma Shtatlari” (1901) pamfletida negrlarni ezish kabi sharmandali hol va irqiy kamsitishlarni qoralab, bunga qarshi turishga chaqiradi. Ammo uning nazarida kurashga qobil kuchlar yo‘q. Yozuvchidagi zaif tomon jamiyatdagi progressiv kuchlarni ko‘ra bilmaslik va ularga tayanmaslikdir.

“Qorong‘ilikda yurgan kishiga” (1901) pamfletida Amerika imperializmining kolonial siyosati fosh etiladi. Kapitalistik davlatlarning kam rivojlangan mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvlarini, madaniyat tarqatish baxonasi bilan tilida xudoyu, dilida yovuz niyat va makkorlik (aldash, sotib olish, o‘ldirish va qo‘rqitish) yo‘li bilan odamlarni qul qilish siyosatini fosh etadi. Mark Tven burjuaziyaning mustamlakachilik siyosatining yemirilishi muqarrar ekanini ko‘ra bilgan yirik demokratik yozuvchi edi. Mark Tven tarixiy temadagi romanlaridan biri "Shahzoda va gado" (1882)da garchi O‘rta asr feodal davri voqealarini aks ettirsa ham, lekin o‘z

¹² Mark Twain. The Prince and the Pauper. Moscow 1982

zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq itmishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda biladi. asardagi voqea XVI asrning Birinchi yarmida Angliyada ro'y beradi. Bir vaqtda bir-biriga ixshagan ikki bola dunyoga keladi. Ulardan biri saroyda, ikkinchisi qashshoq xonadonda tug'iladi. Bular shashzoda Eduard bilan gadoy Tom Kentilardir. Agar Eduard Tyudor saroyda Shoh farzandi sifatida izzat-shurmat va farog'atda yashasa, Tom kambag'al oilada qashshoqlikning butun azob-uqubatlarini boshidan kechiradi. "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1885) romani bilan Mark Tven ijodida yangi davr boshlanadi. Bu ham bolalar haqidagi Birinchi asarining davomidek tuyulsa-da, lekin undan farq qiladigan tomonlari bor. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas, balki kichada yuruvchi yetim Gek Finndir. U faqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bilmay, balki ham aqlan, ham jismonan kamol topib borayotgan o'smir sifatida harakat qiladi. "Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik Yanki" tarixiy-fantastik romanining qahramoni oddiy amerikalik Yankidir. U bir mushtlashish vaqtida boshiga tushgan kaltak zarbidan so'ng aqlini yo'qotadi, shushiga kelgach, o'zini VI asrdagi Angliyada ko'radi va qirol artur saroyiga boradi. Asarning fantastik pardasi ostida real voqealar aks etadi. Artur qirolligi zulm-dahshat, diniy jaholat avj olgan feodalizm hukmronlik qo'lgan davr edi. Yozuvchi o'z zamonasidagi qaboshatlarning o'tmishdagi yaramasliklar bilan bog'liqligini ko'radi.¹³

Mark Tven keyinchalik fransuz xalqining milliy qahramoni Janna d'Ark shaxsiyatigaqiziqadi va "Janna d'Ark" (1896) tarixiy romanini yaratadi. Janna d'Ark Ingliz bosqinchilariga qarshi yuz yillik urush vaqtida o'z jasorati bilan xalqni jangga rushlantirib turgan Fransiyaning milliy qahramoni sifatida ma'lum. Bu asarida yozuvchining monarx, diniy reaksiyaga qarshi nafrati ko'zga tashlanib turadi. Roman Jannaning quroldoshining bu mard qiz haqidagi eshlari asosida yozilgan. Ijodining shu davriga xos "Gedlibergni buzgan odam" (1899) qissasida boylik, shasadgiylikka

¹³ Mark Twain: "Yanki and King Artur" London. 1976.

berilgan shu hozirgi zamon Amerika burjua jamiyati illatlarini fosh etadi. Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan xoli joy, deb atalar edi. Lekin yaqindan qaraganda, u o'sha tuzumning barcha qaboshatlarini o'zida mujassamlantirgan shahar. Uning aksar fuqarolarida vijdon va poklikdan asar ko'rinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yo'q. Bu shaharning ustunlari hisoblangan boy grajdanlari aslida eng insofso'z, tovlamachi, pul uchun o'z shaonidan ham voz kechuvchi shaxslar bilib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi.

Amerika adabiyotining taniqli vakili Mark Tven ijodi har tomonlama o'rganilib quyidagi xulosaga kelindi:

Buyuk satirik, AQSh tanqidiy realizm adabiyotining yirik vakili Mark Tven ijodi va shu bilan bog'liq holda realizm ijodiy metodi, uning mohiyati, jahon adabiyoti xususan Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning shakllanishi o'rganib chiqildi. Bundan tashqari XIX asr boshlaridagi tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy-siyosiy voqealarning o'sha davr adabiyotiga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

1) Jahon adabiyotiga beqiyos hissa qo'shgan ulkan yozuvchi Mark Tven mashaqqatli va sermaxsul ijod yo'lini bosib o'tdi. Yuksak iste'dod egasi, hajviyotga boy so'z ustasi ko'plab xalqlarning hayoti va tarixini, og'zaki ijodiyotini chuqur o'rganadi. Pirovard natijada Mark Tvenning o'nlab asarlari Amerikada va butun dunyoda katta shuhrat qozonadi.

2) U hukmron sinfga, din aqidalariga nisbatan tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, nohaqlikni, axloqiy pastkashlikni, zulm va istibdodni hajv qiladi. Ko'plab jahon xalqlarining tillarida qayta-qayta nashr etilgan, o'quvchilar mehrini qozongan o'tkir satirik tilda zo'r mahorat bilan yozilgan "Tom Soyerning sarguzashtlari", "Shaxzoda va gado", "Geklberri Finning sarguzashtlari", "Yanki va qirol Artur" kabi qator asarlari fikrimizning dalili bo'la oladi.

3) Ijodiy yoʻlining boshida hajviy hikoyalar, xalq ogʻzaki ijodidan keng foydalanib shu uslubda novellalar yaratuvchi sifatida tanilgan Tven yillar oʻtishi bilan tanqidiy realizm ruhi bilan yoʻgʻrilgan jiddiy asarlar yozishga qodir ekanligini isbotladi. XX asr boshlarida yaratgan hajviy pamfletlarida Tven monopolistik kapitalning ichki va tashki siyosatini qoraladi.

Mark Tvenning “Avtobiografiya”si uning hayot va turmushga boʻlgan qarashlarining soʻnggi yillariga xos tomonlarini ochuvchi qimmatli xujjatdir. Ular xotiralar, lirik lavhalar, tabiat manzaralari bilan bir qatorda, Amerika imperializmining yirtqich qiyofasini fosh etgan satiralardan iborat.

4) Tven “buyuk respublika” deb atalgan Amerikani “oʻzak-oʻzagigacha chirigan” buning asosiy sababchisi “imperializm” deb, oʻsha tuzum jamiyatni falokatlarga olib boradi, shuning uchun eng adolatli ijtimoiy tuzum bilan almashtirish kerak, degan obʻektiv xulosaga keladi. Taʼsirchan kulgi sanʼatini egallagan va uning beqiyos kuchiga ishongan Tven oʻzi yashab turgan daxshatli kapitalistik dunyo va uning “zarxallangan asri” da nihoyat avj olgan qalloblik, zoʻravonlik va munofiqliklarni fosh etish bilan birga, zamondoshlarining diqqatini oʻsha qaboxatlarga qarshi kurashga qaratadi. Bu esa, demokrat va satirik yozuvchining oʻz xalqi va jahon progressiv jamoatchiligi oldidagi katta xizmatini koʻrsatadi. Amerika yozuvchisi X.L.Menken Mark Tvenni: Bizning milliy adabiyotimizning haqiqiy otasi, deb atagan edi. Uning fikricha Mark Tvenga qadar hech kim Amerika adabiyotida xalq yumori bilan jiddiy adabiyotning uygʻunligiga bu qadar yuqori darajada erisha olmagan edi.¹⁴

Jahon taraqqiyparvar adabiyotining buyuk namoyondasi Mark Tvenning realizm ruhi bilan sugʻorilgan asarlari koʻp tillarga jumladan oʻzbek tiliga ham tarjima etilgan va oʻquvchilarning samimiy muhabbatiga sazovor boʻlgan.

¹⁴ Razzakov B.A, Nosirova S.SH. “Jahon adabiyoti”. T. 2002.

Buyuk hajvchi, tanqidiy realizm oqimining yirik vakili Mark Tven jahon bolalar adabiyotining klassigi sifatida tan olingandir.

II bob. Realizm davrida Mark Tven yaratgan asarlarda ijtimoiy hayotning tasnifi

2.1. Mark Tvenning asarlarida yoritilgan ijtimoiy-maishiy hayotning satirik talqini

Asrimizning buyuk adiblaridan biri Ernest Xeminguey Mark Tvenning “Geklberri Finning sarguzashtlari” asariga yuksak baho berib, bunday degan edi: “Butun hozirgi zamon Amerika adabiyoti birgina “Geklberri Finn” deb atalmish kitobdan iboratdir...”

Uning asarlari realligi bilan o'sha davrning durdona asarlaridan bo'lgan. Mark Tven tomonidan mahorat bilan yozilgan “Tom Soyerning sarguzashtlari” (1876), „Shahzoda va gado” (1882), “Geklberri Finning sarguzashtlari” (1889), “Yanki va qirol Artur” (1889) kabi qator asarlari mavjud bo'lib, unda Amerika davlatida adolatsizlik, poraxo'rlik, mansab, shuningdek, bolalar hayotining qay yo'sinda kechgani, ijtimoiy ahvolning qay tarzda ekanligi aks etgan.

Yozuvchi o'zining avtobiografik asari “Tom Soyerning sarguzashtlari”da o'quvchilarni o'zining bolalik davrlariga sayohat qildiradi. Tinib-tinchimas, shumtaka Tomning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlari bir qarashda har tomondan cheklangan turmush tarzini buzishga intilishdek tuyulsa-da, aslida asarda katta hayot manzarasi chiziladi. Ijtimoiy tengsizlik qattiq qoralanadi. O'z xalqini e'zozlagan, uning g'am-tashvishlarini o'zinikidek qabul etgan Tven “Geklberri Finn” romanida oddiy mehnatkash xalqqa bo'lgan samimiy mehr-muhabbatini yorqin aks ettirgan amerikacha hayot tarzi, zolimlik va ochko'zlikni qahr bilan fosh qilgan.

Mark Tven o'rta asr hayotiga oid ko'plab asarlar yaratadi. Bu— bejiz emas. U feodalizm asoratidan ezilgan oddiy mehnatkashlar taqdirini tasvirlar ekan, qahramonlar qismatida o'zi yashab turgan zamondagi amerikaliklar hayotidagi ko'pgina illatlarni ham ko'rganday bo'ladi.

1889 yilda dunyoga kelgan “Yanki va qirol Artur” romanining bosh qahramoni o`n to`qqizinchi asrdan oltinchi asr Angliyasiga tushib qoladi.

Bosh qahramonning Amerikaning Konnektikut shtatida bo`lishi bejiz emas. Yozuvchi o`zining so`nggi yillarini Konnektikut shtatiga qarashli Redding qishlog`ida o`tkazadi va shu yerda vafot etadi (1910 y). Asarda o`qiganingizdek VI asrga tushib qolgan Yanki g`addor va qoloq feodalizm hukm surgan Angliyada yangi tuzum — xalq kuchiga tayangan demokratik jamiyat qurmoqchi bo`ladi va bu kurashda bir guruh hukmron feodal doiralarining, o`zining mustabid siyosatini o`tkazayotgan rim katolik cherkovining qarshiligiga duch keladi.

Tvenning fikricha, mehnatkash omma bevosita qatnashadigan, xalq vakillaridan iborat hukumat, millat xohish—irodasini amalga oshiradigan yangicha tuzumni vujudga kelishi kerak edi. Yozuvchi mazkur asarida o`rta asr “zaminida turib” o`z zamonasiga o`tkir nazar tashlaydi. Uning siyosiy iqtisodini, hayotini ayovsiz tahlil etib, oshkora zaharxandalik bilan kuladi. Romanda haq-huquqsizlikni tanqid etish ruhi yorqin aks etgan. Yozuvchi Yankining tili orqali oddiy mehnatkash xalqning jamiyatda tutgan o`rni, ozodlik hamda demokratiyaga bo`lgan munosabatini bildiradi. Qahramon XVIII asr Fransiya qo`zg`olonini eslab, ezilgan mehnatkash xalq birlashsa, ming yillar mobaynida davom etgan zulmni supurib tashlashi mumkinligiga alohida urg`u beradi.¹⁵

Romanning yana bir muhim jihati shundan iboratki, Mark Tven cherkovning insoniyat taraqqiyoti yo`liga to`g`anoq bo`lishini, hukmron sinf tomonida turib xalq qonini so`radigan tekinxo`r bir maraz ekanligini yorqin bo`yoqlar bilan chizib beradi; cherkovning kirdikorlarini fosh etib, uni qattiq tanqid tig`i ostiga oladi.

Jahon taraqqiyparvar adabiyotining buyuk namoyondasi Mark Tvenning realizm ruhi bilan sug`orilgan asarlari ko`p tillarga tarjima etilgan va o`quvchilarning

¹⁵ Mark Twain: “Yanki and King Artur” London. 1976.

samimiy muhabbatiga sazovor bo'lgan. Buyuk hajvchi, tanqidiy realizm oqimining yirik vakili Mark Tven jahon bolalar adabiyotining klassigi sifatida tan olingandir.

Adabiyot olamida buyuk hajvchi, yozuvchi, publisist, jurnalist sifatida tanilgan Mark Tven adabiy faoliyatini kech boshlagan. Fuqarolar urushi yillarida Nevada va Kaliforniyada chop etiladigan gazetalar Tvenni adabiy "cho'qintirgan" joylar edi. Mashhur taxallus ostida imzo qo'yilgan birinchi maqolasi 1863 yilga tegishli. Birinchi kitobi - "Chet ellardagi soddadil kishilar" yana olti yildan so'ng bosilib chiqdi. Biroq bu ilk asarlarini yozishdan oldin Mark Tven o'zi uchun bebaho ilhom manbai bo'lgan hayotning katta maktabidan saboq oldi, chunki bir necha o'n yillar o'tib ham Tven ijodiyoti yoshlik taassurotlaridan bahramand bo'lardi. Tven qalamining ba'zi o'ziga xos xususiyatlarini "tarashlab" sayqal berishga o'sha paytda Kaliforniyada unga homiylik qiluvchi yozuvchi Bret Gart yordam berdi. Ayni shu paytda betakror va mohiyatan o'ta amerikacha badiiy hodisa bo'lgan Tven yumori shakllanadi. 1865-yilda "Kalaveraslik mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa" hikoyasining nashr qilinishi bilan yozuvchi Mark Tven o'z ijodini boshlaydi.

Bu asar ham satiraga boy asarlardan biri hisoblanadi. Bunda xalqning soddaligi, ularning hayot tarzi aks ettirilgan. Bunda Smiley nomli shaxsning faqat garov o'ynashi, buning natijasida o'zi chuv tushib qolgani, bir ajnabiyning unga qilgan hazili, hatti-harakatlari aks ettirilgan. Vilerdan Jim Smiley haqida so'rashganda u kulimsirab u haqida hech narsa demay, u haqidagi uzun hikoyani g'arb shevasida aytib beradi va u sakrashga o'rgatgan mashhur qurbaqani shunday tasvirlaydi:

"set Dan'l Webster down her on this floor And sing out," Files, Dan'l, files!" and quicker'n you could wink he'd spring straight up and snake a fly off'n the counter there, and flop down on the floor again as solid as a gob of mud....".¹⁶

¹⁶ Mark Twain: "A Celebrated Jumping Frog from Calaveras" New York. 1970

Bu gapda qurbaqaning uzunlikka sakrashga o`rgatishi kulgi ostiga olingan, deyarli u uni uchishga o`rgatmoqchi. Shu sababli ajnabiya chuv tushib, ajnabiyni pulini o`ziga qaytarib berganini o`zi hattoki sezmaydi.

Shu bilan birga Tven hikoyani yumorga boy qilish uchun kutilmagan so`zlardan foydalangan:

“Well, thish-year Smiley had ayaller one-eyed cow that didn’t have no tail, only just a short stump like a bannanner and...”¹⁷.

Bu til kitobxonning miyasida yumorning yaratilishiga olib keladi. Bunda asosan sheva aks ettirilgan va Smiley xarakteri ko`rsatilgan. Shuningdek, mubolag`a va satirani uyg`unlikda ham aks ettirgan:

“You never see a frog so modest and straight- for’ars as he was, for all he was so gifted.”¹⁸

Bu bilan qurbaqalarni o`rgatish, ta’lim berish kerak ma’nosida berilgan. Bo`lmasa u istagan ishini qilishi mumkinligi ma’nosi aks ettirilgan. Aslida esa odamlarning bilimga, ta’limga muhtojligi aks ettirilgan. Ya’na bir o’rinda Viler Smileyning shunday tasvirlaydi:

“-if there was a dog fight, he`d bet on it, if there was acat fight, he’d bet on it; if there was a chicken fight, he’d bet on it; why, if there were two birds setting on a fence, he would bet which one would fly first- so he was too, and a goodman”.¹⁹

Bu gapda satira Smileyning har narsa ustidan garov o`ynashiga qaratilgan. Bu qanchalik ahmoqona ish ekanligini hattoki sezmagan va atrofdagilar ham unga

¹⁷ Mark Twain: “A Celebrated Jumping Frog from Calaveras” New York. 1970. 68 p.

¹⁸ Mark Twain: “A Celebrated Jumping Frog from Calaveras” New York. 1970. 74 p.

¹⁹ Mark Twain: “A Celebrated Jumping Frog from Calaveras” New York. 1970. 81 p.

qo`shilib olishardi. U qanday bo`lmasin pul topishga urinar ammo mehnat qilishni also o`ylamas edi.

Mark Tven ijodi uch davrga bo`linadi. Yuqorida nomi tilga olingan asarning yaratilishi bilan adib ijodining birinchi, ilk davri boshlanadi. Bu davr 1865 yildan 1873 yilgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa, uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam qiladi. Mark Tven ijodining birinchi davriga xos bo`lgan xususiyat shuki, yosh adib hikoya va ocherklarida xalq og`zaki ijodida mavjud bo`lgan yumor, dag`al hazil, kinoya, mubolag`adan ustalik bilan foydalanadi. U xushchaqchaq kulgi orqali oddiy kishilardagi kamchiliklarni bartaraf etishga intiladi. Shu bilan birga u muttaham, yulg`ich o`g`ri va munofiqlarni qattiq qoralaydi va odamlarni ular tuzog`iga ilinmaslikka undaydi. Mark Tven dastlabki asarlarida qulchilikning feodal shakllarini ochib tashlaydi.

Mark Tvenning ilk ijodi “Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa”, “Tennesida jurnalistika”, “Men qishloq xo`jaligi gazetasini qanday taxrir etdim” yumoristik hikoyalarida qiziq voqea, latifa va uydirma voqealar tasvirlanadi, ularda burjua matbuotidagi beburdlik masxara qilinadi. Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bo`lgan “Xitoylikning hayoti”, “Gubernatorlikka meni qanday sayladilar” (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan. Bu hikoyalarning nashr qilinishi bilan Mark Tven Amerikaning tez orada birinchi yumoristi sifatida shuhrat qozonadi. Bundan keyin ham uning shuhrati mustahkamlanib kengayib boraverdi, biroq kamdan-kam odam uning yumori asta-sekin o`zgarib borayotganini payqadi. Mark Tvenning Nevada ocherklari kitobi bo`lmish “yengil yelpi” (1872) Ch.D.Uorner bilan hamkorlikda yozilgan “Zarxal asr” (1873) romani va shu davrda yaratilgan boshqa asarlari ham o`z

muallifining yorqin, umuman olganda qalami oʻtkir yumorist degan nomini mustahkamladi.

Mark Tven ijodining ikkinchi davri 1873 yildan 1888 yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Ijodining bu davrida adib oʻzining oʻtkir satirasi va realistik qalamidan tahlikaga tushganlar tomonidan kuchli tazyiqni his qiladi. “Boston maktabi” tarafdorlari Tvenning yozish uslubini tuzatmoqchi boʻladilar. Yozuvchining bu davrda yaratilgan asarlarida biroz tiyilish sezilsada u oʻzining dastlabki pozisiyalaridan qaytmaydi. Shu davrda yaratilgan eng yaxshi asarlari yaʼni “Tom Soyerning sarguzashtlari” (1876) “Shaxzoda va gado” (1882), “Geklberri Finning sarguzashtlari” (1884) kabi romanlarida yozuvchi mahoratining eng noyob qirralari namoyon boʻldi.

Mark Tven ijodining uchinchi davri 1889-1910 yillarni oʻz ichiga oladi. Bu davrda Mark Tven “Qirol Artur saroyidagi Yanki” romani (1889), “Inson oʻzi nima?” falsafiy qissasi, “Sirli notanish kishi” (1898), “Gedlibergni buzgan odam” qissalari, “Zulmkorlar Qoʻshma Shtatlari” (1901), “Ulkan xalqaro marosim” (1902) pamfletlarini yaratdi. Realizm ruhi bilan sugʻorilgan bu asarlarning barchasida yozuvchi jamiyatdagi illatlarni oʻtkir satira tigʻi ostiga oladi. Talantli satirik bu asarlari orqali realistik sanʼatning asosiy prinsiplarini izchil targʻib qilgan holda Amerika imperializmining asl basharasini fosh qiladi.

Tven ijodining oʻziga xos xarakterli xususiyati boʻlgan, voqealarni yumoristik tarzda bayon qilish usuli bu davrda yaratilgan asarlariga ham xosdir. Biroq endi bu yumor tobora achchiq va zaxarxanda boʻla boradi. Ijodiy faoliyatining eng soʻnggi davri Tven satirasi barkamol boʻlgan payt hisoblanadi. Adibning sevimli janr turlaridan biri mustamlakachilik urushlari va bosqinchilik siyosatini qoralaydigan pamfletlar edi. Bu pamfletlarning koʻpchiligi yozuvchi hayotligida nashr etilmadi. Chunki uning oʻz soʻzlari bilan aytganda, Amerika burjua jamiyatida soʻz erkinligi yoʻq. “Soʻz erkinligi faqat oʻliklarga berilgan huquqdir”.

Tven ijodida boshlang'ich epik xarakterdagi nasr yuqolib, ijtimoiy tanqid, atrofdagi voqelikning jirkanch, xunuk tomonlarini fosh qilish kuchayadi. Yozuvchining "Amerikalik talabgor" povesti va 90 yillarda yaratgan qator novellalarida: qaysi yo'l bilan bo'lmasin boylik topish ilinjida, es-xushini yo'qotgan, ma'naviy jihatdan ado bo'lgan odamlarnigina yaratishga qodir bo'lgan o'lik hayot tarzi tasvirlanadi.²⁰

Burjua dunyosiga nisbatan tobora oshib borayotgan nafrat tuyg'usi yozuvchini shunday tushkun tarix falsafasiga olib keladiki, bunda boylik va hokimiyat egalari qarshisida inson mutlaqo himoyasiz bo'lib, inson qadr-qiymatini yerga uruvchi holatlar qayta-qayta takrorlanaveradi. Biroq shunga qaramasdan "Sirli notanish kishi", "Inson o'zi nima?" asarlari yoki yozuvchi nashr qildirishni hohlamagan falsafiy traktat va avtobiografik qaydlarida Tven ijodining gumanistik mohiyati saqlanib qoldi. Uning ijodi AKSh adabiyotida XIX yakunlab, yangi davr XX asrga yo'l ochib berdi.

Mark Tven-bu Samuel L. Klemensning taxallusi bo'lib, yozuvchi H.L.Mincken uni "milliy adabiyotimizning haqiqiy otasi" deb atagan. Ehtimol mana shu nom Tvenni ilgarigi yozuvchilarga qaraganda Amerika milliy yumori va jiddiy adabiyotini keng miqyosda birlashtirishga sabab bo'lgandir. Bu davr mobaynida u asosan hajviy pyesalar yozdi, eng mashhur bo'lgani "The celebrated jumping frog of Calaveras county"

"Bolaligimda Missisipi daryosining g'arbiy qirg'og'ida joylashgan qishlog'imdagi do'stlarim orasida doimiy o'zgarmas bir orzu bor edi. Bu dengizchi bo'lish orzusi edi. Bir boshqa narsalar haqida vaqtinchalik orzu qilamiz, ammo ular shunchaki vaqtinchalik", – deb eslaydi o'z bolaligini yozuvchi. "Sirk kelib ketgan paytda, u bizga masxaraboz bo'lish ehtiyojini berib ketdi. Negro qo'shimchasi ko'rsatgan tomoshasida, hayotga intilish hissini uyg'otdi. Hozir va keyin ham, umid qilamizki,

²⁰ Султон И. Адабиёт назарияси. Т., 1980.

biz yashaymiz va hammasi yaxshi bo'ladi. Xudo bizni dengiz qaroqchisi bo'lishdan asraydi. Bu orzu meni holdan toydirdi, ammo dengizchi bo'lish orzusi hamon yodimda.”²¹

Tarixda Evropa, hozirda Amerika uni yetishtirganiga qaramasdan, u o'zining bolaligi haqida yozgan buyuk manbaalar saqlanib qolgan. Mana shu hodisa bu ikki buyuk asarining yaratilishida uning dastlabki qarashlarini ilhomlantirgan. U Tom va Hak timsolida shunday ta'sirli xarakterlarni yaratganki, ular Amerika mifologiyasining bir qismiga aylandi. Ikkala kitob ham yoshlik davri haqida qissadir, ammo ikkinchi kitobda o'zgacha teranlik borki uni bir qarashda anglash mushkul. Bu kitob o'smirlik davrini anglsh uchundir. Uning bolalik haqidagi ideal fikrlari ostida yotgan daxshatlar Tvenni xuddi kekxa inson sifatida gavdalandiradi.

Samuel Klemens odamlarga buyuk pessimistdek tuyuladi, lekin uning qayg'ulari bolaligi va Missisipi haqida yozganida yuvulib ketadi. “Missisipidagi hayot” sitata yo ko'chirmalarida u bolaligidagi daryo qayiqchisi bo'lish orzusiga qanday qilib erishganini ko'rishimiz mumkin. U Biksbi ismli tajribali odamga qanday qilib shogird tushganini hikoya qiladi. Mark Tven Missisipida bug` qayig`ida Lotsmanlik qilishning murakkabliklarini ifodalab beradi. Daryo doim o'zgarib turadi, uning oqimlari esa ayyorona harakatlanadi. Shunday bo'lganda ham Lotsman daryoni xuddi o'z kaftlarini bilgandek o'rganishga majbur. U bu qayig'ni qoyalar va to'siqlardan , sayoz suvdan va yana yuzlab g'ovlardan asrash kerak. U bularning barchasini nafaqat kun yorug`ida balki tun qorong`usida ham bajarishi lozim.

Bu sitata ochilishidan avval janob Biksbi shogirdining o'rganish bobida sustligini ko'rib g'azablandi, lekin nima bo'lganda ham u kimgadir lotsmanlikni o'rgatishi

²¹ Razzakov B.A, Nosirova S.SH. “Jahon adabiyoti”. T. 2002.

lozim edi. U kulguli va g'azabli ohangda "Yo unga o'rgataman, yo uni o'ldiraman" degan edi. O'z-o'zidan u unga ta'lim berdi va Mark Tven yolg'iz o'zini motorli qayig'iga lotsman sifatida chiqarish vaqti ham keldi. Tven vahimaga tushib qoldi, lekin Biksbi uni qutqargani yetib keldi. Asta-sekin Tven ham daryoni bila bordi. Uning bilimi shunchalik singib keta boshladiki, deyarli instinktivga aylangan edi. U endi mutaxassisligining tajribali odamiga aylangan edi. Va nihoyat, sitatalarning so'ngida Mark Tven biz bilan ham jiddiy ham biroz yurakni ezadigan tarzda aybsizligi tufayli yo'qotganlari haqida suhbatlashdi. U hozir daryoni kitob kabi o'qiy oladi, uning asl mohiyatini biladi, lakin u daryoning go'zalligidan zavqini yo'qotgandi. U qaytib hech qachon daryo she'riyatidan lazzatlanmadi. Adam singari, u bilimi olib kelgan mevani yeb bo'lib, uning to'lovini to'layotgan edi.

1870 yilda Klemens o'ziga to'q, aslzoda qizga uylandi va sharqqa ko'chib kelishdi, avval Buffaloda keyinchalik Konniktikutdagi Hartfordda doimiy qo'nim topishdi. Hartfordga ko'chib kelganlarida Klemens jurnalistikani ish faoliyati haqidagi fantastik asar yaratish uchun to'xtatdi. U ba'zida ma'ruza safarlarini daromadiga qo'shimcha foyda deb qarashiga qaramasdan, uning asarlari yaxshi sotilib, mashhurlikka erishdi.

Hartfordda Klemens boy, o'z davrining bir qancha yozuvchilarini o'z ichiga olgan tarbiyali jamiyat qurshovida edi, taxminlarga ko'ra bu - gazetaning jo'shqin yozuvchisining so'zamolligini va ijtimoiy tanqidlarini jilovlashiga oz muncha ta'sir ko'rsatdi. G'arbdagi hikoyalarida avtobiografik tarzda namoyon bo'lgan Mark Tven va Gartfordda jamiyatda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan Samuel Klemens haqidagi bu taxminni to'laligicha to'g'ri deb aytolmaymiz. Klemensning ishlari o'ta darajada tarbiyali bo'lishdan aziyat chekmagan va uning hajviy asarlari jamiyatga bo'lgan qaqshatqich hujumi edi.

Mashhur inson va xalqaro obru-e'tiborga ega bo'lishiga qaramasdan, Mark Tvenning umidsizligi va inson tabiatining chorasizligi uning muvaffaqiyati bilan

birgalikda o'sib borardi. Kasodga uchrashi uni ma'ruzalar dunyosiga qarzlarini to'lash maqsadida uni boshlab keldi. Xuddi ana shunday o'xshash holatlarni o'z romanlarida yozadi deydi Volter Skot. Umrining so'nggi yillari umidsizlik, baxtsizlik bilan muhrlandi. Mark Tven o'zining eng mashhur 1884 yilda chop etilgan "Gekklberi Finnning sarguzashtlari" romanini yaratdi.

Asardan ma'lumki muallif asarning tuzulishiga ko'p e'tibor bermagan. Romanchilik va jurnalizm uyg'unlashuvi atamasini Mark Tven boshladi. "Gekklberi Fin" jo'shqinlik, qiziqqonlik va inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi epizodlarni tashkil etadi.

Ma'ruzachi sifatida u hajviyaviy, o'z hayotidan olingan va xalqchil iboralardanfoydalangan holda ijod qilgan. Tabiiy nutqi jo'shqin taassurotlar qoldiradi. Uning yumori g'arbga xos, irqiy, fantastik va mubolag'aga boy. Hemenguey va Sentbekdan o'rgangan tajribalari orqali u Evropa ananasini sindirgan holda zamonaviy Amerika nasriga asos soldi.

"Gekklberi Finnning sarguzashtlari" asari sarguzasht roman. Kitob Missisipi daryosi hayotini haqiqiy tasvirlab beradigan romandir. Sivilizasiyadan yiroq bo'lgan qishloq odamlarining oddiy turmushi, yashash sharoitlarini tasvirladi.

Mark Tven qo'rqinchli, ichuvchi otasidan qochib do'sti Jim bilan birgalikda Missisipi bo'ylab uzoq safarlar uyushtirgan, maktab ko'rmagan, oddiy, oq tanli bola sarguzashtlari haqida hikoya qilardi. Bu mavzu muallifga o'quvchini hayajonli va kulguli voqealar bilan tanishtirishga imkon beradi. Ammo sarguzasht va yumor ortida jiddiylik, ba'zan hatto fojea yashiringan bo'ladi. Mark Tvenning asarida Hakning (Geklberri) qochishi o'zi bunyod etgan dunyodagi kishining sayohati timsolidir. Hakning tajribalari tufayli romannavis halollik, sadoqatlilik, jasurlik va rahmdillik kabi muhim insoniy sifatlarni yoritib bergan.

Kitob o'tgan yuz yillar ichida Amerikaning ko'plab yozuvchilar qo'l urgan savol sivilizasiyalashgan va tabiiy hayot o'rtasidagi tanlov bilan bog'liq. Hak inson yaratgan sivilizasiyani inkor etib, go'zal tarzda yovvoyilikka qaytadi. Bu asarning so'nggi gapida xulosalangan bo'lib, Hak aytadiki "Men bunday o'z hududimni kengaytirib yoritishimga to'g'ri kelar deb hisoblayman, chunki Sally xolammeni asrab olmoqchi va tarbiyalamoqchi, men esa bunga toqat qila olmayman. Men bu muhitda oldin bo'lganman".

Tarkibiy tuzulish jihatdan asarning uzviy bog'lanmaganligi o'rnini Gekklberi Finn qahramongabo'lgan qiziqishning jamlanmasini to'ldirib yuboradi. Hak o'rta yoshli, yetuklikdan yiroq, sho'x bir bola. U so'kinadi, chekadi, odamlarga nayranglar qiladi va bu xatti-harakatlariga e'tibor ham bermaydi. Ammo uning ham o'z axloqiy me'yorlari va hech qachon o'zgarmaydigan xislatlari ham mavjud bo'lgan. Bu xatti-harakatlari bilan u o'sha davrdagi insonlarining fe'l atvorini ko'rsatib bergan.

«Zarhal asr» (1873, Ch. Uorner bilan hamkorlikda) romani moliyaviy-siyosiy korrupsiya haqida, «Yaltiroq asr» (1874) satirik romanida esa jamiyat illatlari hajv etiladi. Yumoristik va satirik yo'sinda yozilgan «Eski va yangi hikoyalar» (1875), «Tennesidagi jurnalistika» (1869), «Meni gubernatorlikka qanday saylashgani» (1870), «Qishloq xo'jaligi gazetasiga qanday muharrirlik qildim» (1870) singari to'plamlariga kirgan asarlarida Amerika xayotining turli qirralari tasvirlangan.

«Geklberri Finning boshidan kechirganlari» (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonmayon mavjudligi ko'zga tashlansa, «Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar» (1889) qissasida ijtimoiy qarama-qarshilik dunyosi krralanadi. «Missisipidagi eski davrlar» (1875), «Missisipidagi hayot» (1883) kitoblari, «Shahzoda va gado» (1882), «Ovsar Vilson» (1894), «Tom Soyer chet elda» (1894), «Tom Soyer — josus» (1897), «Sirli notanish odam» (1916) kabi roman va qissalar muallifi.

2.2. “Tom Soyer sarguzashtlari”da ifodalangan satiraning tasviri va “Geklberri Finning sarguzashtlari” asarida Amerika ijtimoiy-maishiy hayotning talqini

Yozuvchi o`zining avtobiografik asari “Tom Soyer”da o`quvchilarni o`zining bolalik davrlariga sayohat qildiradi. Tinib-tinchimas, shumtaka Tomning ajoyib-g`aroyib sarguzashtlari bir qarashda har tomondan cheklangan turmush tarzini buzishga intilishdek tuyulsa-da, aslida asarda katta hayot manzarasi chiziladi. Ijtimoiy tengsizlik qattiq qoralanadi. O`z xalqini e`zozlagan, uning g`am- tashvishlarini o`zinikidek qabul etgan Tven “Geklberri Finning sarguzashtlari” romanida oddiy mehnatkash xalqqa bo`lgan samimiy mehr-muhabbatini yorqin aks ettirgan amerikacha hayot tarzi, zolimlik va ochko`zlikni qahr bilan fosh qilgan.

Satira bu komiklik turi bo`lib, biror bir obyektни vosita qilib, uning ustidan kulishdir. Bu voqeiylikni aks ettirishning o`ziga xos uslubi bo`lib, unda jamiyatdagi asossiz, noto`g`ri hodisalar va illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko`rinishlari o`zgartirilib, bo`rttirib, mubolag`a qilinib, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko`pgina turlari yordamida (yumor, hikoya) ham satira obyektiga ishlov beriladi.

Satira Qadimgi Rimda lirikaning bir janri sifatida tan olingan. Keyinchalik o`zining janriy xususiyatlarini yo`qotib borib, ko`pgina janrlar (masal, epigrama,, pamflet, feleton, komediya va satirik roman)ning o`ziga xos xususiyatini belgilovchi adabiy janrga o`xshab qoladi. Satira ijtimoiy kurashning eng muhim vositasi bo`lib, unga tarixiy sharoit, milliy va ijtimoiy taraqqiyot faol ta`sir ko`rsatadi. Satiraning ma`naviy ta`sir kuchining o`tkirligi unda achchiq kulgu orqali haqiqatni yoritib berishdir. Satiraning estetik vazifasi tubanlik, nodonlik va boshqa ijtimoiy illatlarga qarama-qarshi tarzda kishilarda yuksak insoniy tuyg`ularni uyg`otish va qayta tiklashdan iborat. Satirada muallifning individualligi kulgu ostiga olingan obyekt

haqida murosasiz fikr aytish, unga aniq g'oyaviy munosabat bildirish orqali namoyon bo'ladi.²²

Shu bilan birga, Mark Tven asarlarida ham satiradan oqilona foydalanilgan. U o'sha davr ijtimoiy hayotini shu orqali ta'riflab bergan. Masalan, uning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarida o'sha davrdagi ba'zi illatlar, tuhmatlar aks ettirilgan:

Ko'pgina bolalar singari, Tom ahvoli qandayligini biladigan bola edi va boshqalar unga nisbatan adolatsizlik qilishayotganini sezib turadi. Misol uchun qochib ketib, qaroqchi sifatida yashaydi, chunki Bekki Tetcher unga shunday deydi:

"He was gloomy and desperate. He was a forsaken, friendless boy, he said:nobody loved him;when they found out what they had driven him to, perhaps they would be sorry;he had tried to do right and get along,but they would not let him; since nothing would do then but to be rid of him; let it be so; and let them blame him for the consequences-why shouldn't they? What right had the friendless to complain? Yes,they had forced him to it at last;he would lead a life of crime. There was no choice".²³

Bu hodisa Tomning xatti-harakatlari aks ettirilgan, bu ishlarni qilgani uchun kimni ayblash mumkinligini va qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini bilmaslik achchiq kulgi ostiga olingan, o'sha davr illatlari, savodsizlik aks ettirilgan.

Biroq, haqiqat shu ediki, Tom sevilmağan edi, aslida u juda mashhur. Bekki uni aldagan bo'lsa-da, u hali ham uni yaxshi ko'radi, u qishloqdagi boshqacha qizlardan biri edi.Tomning ham qochib ketmoqchi bo'lgan do'stlari Jo va Hak ham bor edi. U bazmlarga taklif qilinib, uning oilasiga muhabbat ko'rsatishdi.U g'amgin va umidsiz edi. U do'stsiz bola edi, dedi u; uni hech kim yaxshi ko'rmas edi; Ularni nima qilishga

²² Qurbonov D., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, 2010

²³ Mark Tven: "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" Toshkent 1968.56 b

majbur qilganlarini bilganlarida, ehtimol ular kechirim so'rashardi. U to'g'ri yo'l tutishga harakat qildi, lekin ular unga yo'l qo'ymas edilar; chunki u hech narsa qila olmasdi, balki undan qutulish kerak edi. va uni oqibatlari uchun uni ayblashsin - nima uchun ular emas? Do'stsiz shikoyat qilish huquqi qanday edi? Ha, ular uni oxiriga yetkazishgan: u jinoyat sodir etgan. Boshqa imkon yo'q edi.

Mark Tven Tomning bu usulini ajoyib tasvirlaydi, chunki dramasi kulgili va universaldir.

Satiraning yana bir turi bo'lib, unda ma'ruzachi nimani nazarda tutgan bo'lsa, ziddiga o'xshatib gapiriladi. Tom va uning do'stlari yoshligi, tajriba va ta'lim etishmasligi kulgili va ko'pincha befoyda bo'lgan juda ko'p imkoniyatlarni yaratib beradi. Misol uchun, garchi garovgir bo'lishni xohlasa-da, o'g'il bolalarni cho'chqa va go'shtni o'g'irlab ketishganidan keyin o'zini aybdor deb bilib, «Muqaddas Kitobda bunga qarshi amr bo'lgan» degan tushuncha bor. O'xshatish bolalar shunday qarorga kelganda paydo bo'ladi: "Ular ishdan qolishlari bilanoq, ularning jinoyatchilari o'g'irlik jinoyatidan mahrum bo'lmasliklari kerak". Nima uchun bu hazil? "Qaroqchilik" so'zining ta'rifi "o'g'irlash yoki o'g'irlik" degan ma'noni anglatadi. O'g'il bolalar o'g'irlashda aybdor deb his qilsalarda, garchi jinoyatch bo'lishni rejalashtirmoqda edilar. Holbuki, ular garovgirlar nima qilayotganiga to'liq qarshilik qiladilar.

Dramatik o'xshatish tomoshabinlar yoki o'quvchi xarakterga ega bo'lmagan muhim ma'lumotlarni bilganida paydo bo'ladi. Tom va uning to'dasi garovgirlar sifatida orolda yashash uchun qochib ketganida dramatik istehzoli o'rnak bor. Sankt-Peterburg shahar ahli eng yomon ahvolga tushib, o'g'lining o'limini dafn qilayotganda, tomoshabin Polly xolaning qayg'uli munosabati, dastavval Tomning xayolida avval kitobda aks ettiradi, u o'lganini va uni qadrlamaganidan afsuslanar ekan:

“And he pictured himself brought home from the river, dead, with her curls all wet, and his sore heart at rest. How she would throw herself upon him, and her tears would fall like rain, and her lips pray God to give her back her boy and she would never, never abuse him any more!”²⁴

Hattoki, Tom o`liklarni ham uchratadi, Injun Jo bilan murosasizlik, oltinlar mashmashasiga ham duch keldi. U daryodan o`liklarni ham olib chiqadi va uyga olib kelinganini, o`liklari, og`riqdan dam olganini tasavvur qildi. Yosh bolalarning bu mashmashalarga aralashib qolgani achchiq tanqid ostiga olinadi. Qanday qilib u o`zini unga tashlab yuborishi va uning ko`z yoshlari yomg`ir kabi yiqilishiga va lablari xudoga ibodat qilib, bolasini qaytarib berishini so`raydi va hech qachon u bilan hech qachon uni asramaslik qilmaydi.

Keyinchalik, Tom va Joning daryoda cho`kib ketgan deb taxmin qilinganida, Tom Polli xolasining ovozi eshitadi:

She began to cry” And God forgive me, I cracked Tom’s head with my thimble, poor boy, poor dead boy. But he’s out of all his troubles now. And the last words I ever heard him say was to reproach.²⁵

“Geklberri Finning sarguzashtlari”da Pop satiraning asosiy manbasi sanaladi. 6-bo`limda berilganidek, Pop satira bilan yaxshi aks ettiriladi. Popni Tomning kuchini ko`rib, shu qatorda jamiyat va hukumatning har doim ham xulqli bo`lmaganligi va qullik axloqsizlik ekanligi haqidagi fikrlar uni jalb qiladi.

Pop papa hokimiyatga o`xshab monarxiya va och kuch edi. Pop Gekldan o`zining manfaati uchun foydalandi, shunday bir paytda hukumat iqtisodiy foydasi uchun qullikdan foydalanardi. Pap o`zini hukumatni masxara qilarkan:

²⁴ Mark Tven: “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” Toshkent 1968.21 b

²⁵ Mark Tven: “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” Toshkent 1968.49 b

“ They call the government”²⁶

der edi. Bu yerda Mark Tven hukumatni aybdor va korruptsiyalashgan deb aytish uchun Popdan foydalanmoqda. Gekldan boshqa hech narsa uning hayotida hech qanday nazoratga ega bo'lmasligini yoqtirmaydi. Hukumatdagi muayyan vaziyatlarni nazorat qilmasa, u davlatga yoqmaydi. Pop huquqlarga ega bo'lgan hukumatni istaydi, deydi. Bu juda kulgili. Shuning uchun u qullardan ko'ra ko'proq huquqlarga ega.

Bundan tashqari, popning oq jamiyat degan o'rnida ham bir qator satiralardan foydalangan. Masalan, Pop shunday deydi:

“There ain't no man in that town that's got as fine clothes as what he had.....the awfulest gray-headed nabob in the State”²⁷

Tven, oq jamiyatga moslashishning yagona yo'li ta'lim va boy bo'lish kerakligini ifodalab beradi. Hatto erkin qora tanlilar oq standartlarga mos kelishi kerak edi. Pop, hukumat haqida gapirganda "ular" deb aytadi. Pop "oq" jamiyatga "ular" deb murojaat qilmoqda. "Bu shaharda hech qanday odam yo'q, u xuddi davlatdagi eng dahshatli kulrang boshli nabob kabi ..."

Tven ham qullikni satiralash uchun popdan foydalanadi. Tven nafaqat Popga gapirmaydi, chunki Gekl beva bilan yashayotgan edi. Shuningdek, u har doim qullar bilan bir xil narsaning sodir bo'lishini aytadi, lekin ular quldir, chunki hech kim u uchun qayg'urmaydi yoki borligini anglamaydi chunki ular qul edi. Pop shunday deb qullikni qoralagan:

“They call that a government that can't sell a free nigger till he has been in the State six months”²⁸

²⁶ Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 58--bet

²⁷ Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 20-bet

²⁸ Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 43-bet

Tven qora qulni sotish uchun olti oyni kutish kerakligi qanday kulgili ekanligini ko'rsatish uchun Papdan foydalanib, qullik institutini masxara qiladi.

"Ular olti oylik jamiyat bo'lguncha , erkin zulmni sotolmaydigan davlatdir" degan o'rnida Mark Tven ajoyib satirani qo'llagan.

Popning nigohida Tven jamiyatning g'oyalarini targ'ib qilib, butun jamiyatning shafqatsizligini ko'rsatdi. Tven hukumat, oq jamoatchilik va qullikni Amerika jamiyati umumiy axloqsizligi va axloqqa zid bo'lganligi haqidagi fikrlarni olib chiqdi. Natijada, Tven hukumatni, oq jamoatchilik va quldorlikning kamchiliklarini muvaffaqiyatli ko'rsatish uchun Popdan foydalanishga muvaffaq bo'ldi.

Pop butun romanda boshqa odamga yordam bermadi. U pulga muhtoj bo'lganida faqatgina bitta o'g'linikiga tashrif buyuradi. Gekl va Popni uchrashib qolishganlarida Pop birinchi navbatda Geklni aqlli bo'lishni to'xtatish uchun buyruq beradi, chunki u yomon ko'rinadi va keyinchalik uning talabiga javoban uning to'satdan paydo bo'lishining haqiqiy sababini ochib beradi: "Sizni menga ertaga pul berishingizni istayman "Pap o'z hokimiyatining oxirgi qismini, otasi hokimiyatini, uning ochko'zligidan foydalanadi. Tven mutlaq ochko'zlik mantiqsiz ekanligini isbotlash uchun Popdan foydalanadi.

Hatto Pop yordam berish uchun qo'lidan kelganini qilsa ham, chunki u o'g'liga o'xshagan odamlarga yaxshilik qilmasdan, Geklning munosib otaga beriladigan boyliklaridan hech birini qabul qilmaydi. Bugungi kunda, ayniqsa, iqtisodiyotimizda ochko'zlik keng tarqalgan. Amerika kapitalistik iqtisodiyoti ochko'zlik va haddan tashqari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ochko'zlik Amerikaning yuragidir, ammo agar u chegaralari bo'lmasa, biz barchamiz juda zo'r Pop Finnsga aylanamiz. Tven 8-bobda qullik jamiyatning axloqiy to'qimasini qanday qilib ikkiyuzlamachilikni ochib tashlashi mumkinligini ko'rsatadi.

Qullik tugadi va bir necha o'n yillar o'tgach, deyarli barcha jamiyatning ishi o'z maromiga tushgan edi. 12-13 boblar: Insonning insonga nisbatan g'ayriinsoniyligi.

” Geklberri Finning sarguzashtlari”da Gekl boshidan o'tgan zo'ravonlikdan u odatda hayratlanardi.. Biroq, Tven zo'ravonliklarni Tom Soyer bilan qaroqchilar guruhiga qayiqchada shafqatsiz zo'ravonlikka olib borganidan so'ng, u boshqa bir axloqiy vahshiylikni yosh bolaning ko'zi bilan o'rganib chiqadi.

Gekl kitobning boshida qotillik va talonchilik bilan qiziqqan bo'lsa-da, 12-bobda Gekl haqiqiy zo'ravonlik va o'lim bilan qarshi olinadi va u qanchalik dahshatli ekanini tushunadi. Bug' kemasida, Gekl odamlarning o'limga duchor bo'lishini anglab yetgach, juda ta'sirchan tarzda javob beradi. U o'z hayotini xavf ostiga qo'yishni anglatsada qo'rqib ketadi va qahramonlik bilan ularni qutqarishni xohlaydi .Hak, xuddi xudbin otalar tomonidan o'stirilgan bo'lsa-da, hatto qon va jasadlar bilan bezovtalanmaslikni da'vo qilsa-da, haqiqiy zo'ravonliklarga duch kelganda, u boshqa bir narsani qutqarish uchun o'z ehtiyojini bir chetga qo'yadi.²⁹

“Geklberri Finning sarguzashtlari” 6-bobida Mark Tven oq tanli kishiga va qora tanli kishiga zid keladigan qora noxushliklarni ochib beradi. Oq odam Pop Finn uchun iflos, savodsiz. U qora tanli odam "Most white as a white man" bo'lsa-da, ovoz berish huquqiga ega ekanligiga shafqatsizlarcha aytadi. Pop Finn, oq kishini romandagi yovuz va irqchi deb tasvirlaydi. Faqat qora bo'lish Papning nafratini qondirish uchun kifoya edi, biroq u aqlli, toza, chiroyli, qora tanli odam bo'lgani uchun, uni to'xtatib qo'ydi. Shu bilan bir qatorda Tven asarida Emili Grengerfordning”Ode to Stephan Dowling Bots, Dec'd” she'riyatidan hazil-mutoyibada foydalanadi. Masalan:

²⁹ Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 27-bet

“She warn’t particular, she could write about anything you choose to give her to write about, just so it was sadful. Every time a man died, or a woman died, or a child died, she would be on hand with her “tribute” before he was cold”³⁰

Gekl Popga shaharda qora tanli odamlarga duch kelishi mumkinligini aytadi. Gekl ularga ta’rif beradi va ularni ovoz berishini xohlaydi.” They said he was a professor in a college, and could talk all kinds of languages, and knowed everything. And that ain’t the wast. They said he could vote”³¹

Popning nigohida Tven jamiyatning g'oyalarini targ'ib qilib, butun jamiyatning shafqatsizligini ko'rsatdi. Tven hukumat, oq jamoatchilik va qullikni Amerika jamiyati umumiy axloqsizligi va axloqqa zid bo'lganligi haqidagi fikrlarni olib chiqdi. Natijada, Tven hukumatni, oq jamoatchilik va quldorlikning kamchiliklarini muvaffaqiyatli ko'rsatish uchun Popdan foydalanishga muvaffaq bo'ldi.

³⁰Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 68-bet

³¹Mark Tven: “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” Toshkent 1962. 72-bet

Xulosa

Mark Tven qator asarlarida o'sha davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini olib chiqa olgan. Uni satira orqali ya'ni o'xshatishlardan foydalangan holda aks ettirgan. Uning roman, qissa, hikoyalari asosan xalq haqidagi voqealardir.

Shu qatorda, uning qator asarlarida illatlar qoralangan. "Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik Yanki" tarixiy-fantastik romanining qahramoni oddiy amerikalik Yankidir. U bir mushtlashish vaqtida boshiga tushgan kaltak zarbidan so'ng aqlini yo'qotadi, hushiga kelgach, o'zini VI asrdagi Angliyada ko'radi va qirol artur saroyiga boradi. Asarning fantastik pardasi ostida real voqealar aks etadi. Artur qirolligi zulm-dahshat, diniy jaholat avj olgan feodalizm hukmronlik qo'lgan davr edi. Yozuvchi o'z zamonasidagi qabohatlarning o'tmishdagi yaramasliklar bilan bog'liqligini ko'radi.

Ijodining shu davriga xos "Gedlibergni buzgan odam" (1899) qissasida boylik, hasadgöylikka berilgan hozirgi zamon Amerika burjua jamiyati illatlarini fosh etadi. Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan xoli joy, deb atalar edi. Lekin yaqindan qaraganda, u o'sha tuzumning barcha qabohatlarini o'zidmujassamlantirgan shahar. Uning aksar fuqarolarida vijdon va poklikdan asar ko'rinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yo`q. Bu shaharning ustunlari hisoblangan boy grajdanlari aslida eng insofsiz, tovlamachi, pul uchun o'z shaonidan ham voz kechuvchi shaxslar bilib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi.

"Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonmayon mavjudligi ko'zga tashlansa, "Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar" qissasida ijtimoiy qarama-qarshilik dunyosi qoralanadi.

«Geklberri Finning boshidan kechirganlari» (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonmayon mavjudligi koʻzga tashlansa, «Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar» (1889) qissasida ijtimoiy qrama-qarshilik dunyosi qoralanadi. «Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa» asarida esa bilimsizlik, qay yoʻl boʻlsada pul topishga urunib, ochkoʻzlik qilish kabi illatlar qoralanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Harakatlar Strategiyasi" 2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 32-son, 820-modda.
3. Боброва М.Н. Марк Твен. М., 1962.
4. Засурский Я.Н. Американская литература XX в. М., 1966.
5. Литературная история США. т.1-2. М., Прогресс 1990.
6. Михальская Н.П, Пурищева О.А. История зарубежной литер. М., 1981.
7. Мулярчик А.С. Американский писатели. М., 1990.
8. Ромм А.С. Марк Твен. Л., 1977.
9. Самохвалов Н.И. История Американской литературы. М., 1971.
10. Султон И. Адабиёт назарияси. Т., 1980.
11. Шукуров Н. Адабиётшуносликка кириш. Т., 1984.
12. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 1995.
13. Қаяумов О. Чет эл адабиёти тарихи. Т., 1979.
14. Curry Dean. "Highlights of American Literature". Washington, D.C. 1988.
15. Fones Philip S. "Mark Twain: social critic" New York, 1958.
16. Holman H., Harmon W. A Handbook to Literature. London., 1992.
17. The Norton Anthology of American Literature. Vol. 1-2., L. 1970.
18. Badiiy adabiyotlar.
19. Mark Tven: "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" Toshkent 1962. 27-bet
20. Mark Tven: "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" Toshkent 1968
21. Mark Twain. The Prince and the Pauper. Moscow 1982
22. Mark Twain: "Yanki and King Artur" London. 1976.
23. Mark Twain: "A Celebrated Jumping Frog from Calaveras" New York. 1970
24. Lug'atlar:
25. Hornby A.S. Oxford Advanced learner's Dictionary, Oxford un. Press. 1995

26. Myuller B. K, Англо - русский словарь. М., 1987
27. The Oxford Russian Dictionary М., 2004
28. Qurbonov D., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, 2010
29. Razzakov B.A, Nosirova S.SH. "Jahon adabiyoti". T. 2002.